



PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

MATNSHUNOSLIK ALIFBOSI

7



PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

Rahimboy Jumaniyozov

MATNSHUNOSLIK ALIFBOSI

(ARAB ALIFBOSIGA ASOSLANGAN ESKI O'ZBEK YOZUVI)

Ijod maktablarining 7-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari
agentligi huzuridagi ilmiy-metodik kengashi tomonidan tavsiya etilgan



UO'K 811.411.21(075)
KBK 81.2Arab

Tuzuvchi-muallif:
Rahimboy Jumaniyozov

Loyiha koordinatori:
Xilola Umarova

Xattotlar:

**Salimjon Badalboyev,
Habibullo Solih,
To'xtamurod Zufarov,
Ma'mura Rashidova,
Rahimboy Jumaniyozov**

Mas'ul muharrir:

Sayfiddin Raf'iddinov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Maxsus muharrirlar:

Jasur Mahmudov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Sabohat Rahimova,
PTMA ijod maktablari bilan ishlash
bo'limi boshlig'i o'rinnbosari.

Taqrizchilar:

Zaynobiddin Abdirashidov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent;
Nilufar Yuldasheva,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Sulton Mirzo Rahimov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Barcha huquqlar himoya qilingan:

**O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligining yozma
ruxsatisiz ko'paytirish, tarqatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqlanadi.**

ISBN 978-9943-7427-1-0

© Zamin Nashr, 2021.
© O'zbekiston Respublikasi
Prezident ta'lif muassasalari agentligi, 2021.

Aziz o‘quvchi!

Ota-bobolarimiz ming yildan ziyod muddat mobaynida foydalanib kelgan arab yozuvi uzoq davrlik madaniyat va san’atimiz tarixining kaliti, moziy muhridir. Birinchi va ikkinchi Sharq renessansining buyuk mutafakkirlari ham xuddi shu yozuvda o‘z ilmiy-adabiy meroslarini yozib qoldirishgan. Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobi, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud az-Zamahshariy, Mirzo Ulug‘bek, Hazrat Navoiy, Bobur Mirzolardan tortib, XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrda ijod qilgan allomalarining merosi xuddi shu yozuvda bizgacha yetib kelgan.

Buni albatta yodda tuting!

Arab alifbosini sinchiklab o‘rganishingiz, mumtoz merosga bo‘lgan mehringiz, ilm-fan sirlarini egallahsha bo‘lgan ahdingiz Prezident e’tirof etgan Uchinchi Renessansning tagzamini-poydevoridir.

MUNDARIJA

Alifbolar tarixidan	6
Zamonaviy arab alifbosida tinish belgilar va raqamlarning ifodalanishi.....	10
Arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari	11
Arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvi	14
1-saboq: “Alif ” harfi	20
2-saboq: ئ tayanch belgili harflar	22
3-saboq: ئ ئ tayanch belgili harflar	26
4-saboq: “Vov” harfi	32
5-saboq: ئ ئ ئ tayanch belgili harflar.....	38
6-saboq: ئ ئ ئ ئ harflari.....	48
7-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar.....	56
8-saboq: “Hoyi havvaz” harfi	68
9-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar.....	74
10-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar	82
11-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar	88
12-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar	94
13-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar	104
14-saboq: ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ ئ tayanch belgili harflar	112
15-saboq: “Lom” va “Mim” harflari.....	120
16-saboq: Harfiy qo‘silma va harakatlar.....	134
Mustaqil o‘qish uchun matnlar.....	147

«ALIFBO» NE DEYDUR?

Vatanimiz Alifbo,
Bag'ridamiz jo bajo.

O'ttiz ikki askarmiz,
Birlashsak, so'z-lashkarmiz.

Do'stga bag'ri kenglarmiz,
G'animlarni yengarmiz.

Qo'shinimiz ikki xil:
Munfasil-u Muttasil.

Bizni yaxshi bilsangiz,
Hurmat bajo qilsangiz.

Bo'lursiz haqqa vosil,
Ilmdan murod hosil.

So'ylab ajdod qadrini,
Ham avlodlar dardini.

Bobolar kayfiyatini,
Momolar ruhiyatini..

Marjon kabi teramiz,
Sizga jamlab beramiz.

Fe'limizni bilingiz,
Shunga amal qilingiz.

Qolmasin sizga pinhon,
Bizdag'i ruhi ravon.

O'ngdan boshlab yuramiz,
Va saf chekib turamiz.

Bosh, kichik harf yo'q bizda,
Tutingiz yodingizda.

Cho'ziq unli ham undosh,
Doim bizga safardosh.

Qisqa unli ko'zi lo'q,
Unga safda o'rin yo'q.

Kelsa bir xil qo'sh undosh,
Faqat biridur yo'ldosh,

Tinish belgi na hojat,
Yetuk bo'lsa farosat.

Unga emasmiz muhtoj,
Zakovat bizga gultoj.

Maqsad — ma'no anglatish,
Ko'ngillarga yo'l topish.

O'ziga berib sayqal
Harflar so'ylar galma gal.

Qatordagi ilg'orlar
Munfasillar sardorlar.

Dastlab so'ylashi tayin,
Muttasillar sal keyin.

Siz o'qishga kirishing,
Sidqidildan tirishing.

Ixlos ila albatta,
Fozilllik, husnixatda.

Dillarni shod etgaysiz,
Yurtni obod etgaysiz.

Sizga omad yor bo'lsin,
Tangri madadkor bo'lsin!

ALIFBOLAR TARIXIDAN

Ajdodlarni avlodlar bilan bog'laydigan, ma'naviy merosni keyingi avlodlarga yetkazishga xizmat qiladigan vosita – bu yozuvdir. Yusuf Xos Hojib yozganidek:

*Agar bo'lmaganda xattot qalami,
Qorong'u qolardi moziy olami.*

Demak, moziy, ya'ni o'tmish voqeа-hodisotlari haqidagi bitiklar, shuningdek, ajdodlarimizning orzu-armonlari, maqsad-tilishlari yozma manbalar sababli bizgacha yetib kelgan. Manbashunoslik, matnshunoslik ilmi shu manbalarni o'rganadigan fandir.

Ajdodlarimiz hozirgi kunga qadar bir qancha yozuvlardan foydalanishgan. Bular oromiy, so'g'd, pahlaviy, uyg'ur, xorazm, o'rxun – enasoy, arab, kirill va lotin alifbolaridir.

Oromiy yozuvi miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida qadimiy finikiy (som) yozuvi asosida paydo bo'lgan. Eramizdan avvalgi VIII asrdan boshlab Yaqin Sharq va Ahamoniylar davlatida asosiy yozuv sifatida ishlatilgan. Asta-sekin bu yozuvni arablar, forslar, uyg'urlar va boshqa xalqlar o'zlashtirib, o'z tillariga moslashtirishgan.

Ҷ ҵ Ҹ Ҵ Ҷ һ ҹ ҷ Ҹ ҹ ҷ

Ҳ Ҵ Ҹ ҹ ҷ Ҹ ҹ ҷ Ҹ ҹ ҷ

Oromiy alifbosi

So'g'd yozuvi oromiy yozuvi asosida eramizning I asrida shakllangan. Bu yozuv qariyb ming yil davomida hozirgi O'zbekiston va qisman Tojikiston yerlarida (Zarafshon vodiysi) joylashgan qadimiy So'g'diyonada qo'llanilgan.



So‘g‘d alifbosi

Pahlaviy yozuvi oromiy yozuv ko‘rinishlaridan biri asosida eramizning V-VI asrlarida Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida paydo bo‘lgan. Ushbu yozuvning bir ko‘rinishi (moniy yozuv tizimi) turkiy xalqlar yozuvining shakllanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Qadimgi Xorazm yozuvি

Qadimgi Xorazm yozuvi. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi - bu xumning sirtida tasvirlangan Xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U Katta Oybuyirqal'a shahar xarobasidan topilgan. Arxeologik

ma'lumotlarga ko'ra, bu yozuv mil.avv. V-IV asrlarga tegishlidir. Mil. avv. IV-III asrlarga oid yana bir qadimgi Xorazm yozuvi Qo'yqirilgan qal'ada topilgan sopol idishning sirtida saqlangan. Bu manba yagona "aspabarak"- "otlik", "chavandoz" so'zidan iboratdir. Qadimgi Xorazm yozuvi oromiy alifbosiga asoslangan.


O'rxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng qadimgi harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv «Yenisey-urxun yozuvi», «Sibir yozuvi», «Turkiy runik yozuv» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Runik deb atalishiga sabab – bu yozuvning tashqi ko'rinish jihatidan german runik yozuvlariiga o'xhash ekanligidir.



O'rxun-enasoy yozuvi

Uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvi asosida paydo bo'lgan. Uyg'ur yozuvidagi eng qadimgi yodgorliklar VIII-IX asrlarga oid deb taxmin qilinadi. Qadimgi uyg'ur alifbosi X asrning boshlarigacha ham qo'llanilishda davom etgan. "Me'rojnama", "O'g'uznama", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" kabi ko'pgina asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan.

Kushon yozuvi miloddan avvalgi 140-130 yillar oralarida Kushonlar imperiyasida oromiy yozuvi negizida shakllangan. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon–baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan.




Kushon yozuvi

Arab yozuvi miloddan avvalgi so'nggi asrlarda oromiy yozuvi negizida yuzaga kelgan. Arablar islam dinini qabul qilganlaridan keyin (VII asrning 1-yarmi) arab yozuvining 2ta asosiy grafik ko'rinishi yuzaga kelgan: Kufiy (qadimgi shakli) va nasx. Kufiy xatida (Frot daryosi bo'yidagi Kufa shahri nomidan olingan) harflar yirik va deyarli alohida-alohida yozilgan, asosan Qur'oni Karimni ko'chirishda, shuningdek, turli yodgorliklar, tangalar, davlat hujjatlarida foydalanilgan. Nasx xati hozirda kitobiy yozuvga asos bo'lgan, u asosan adabiy va ilmiy matnlarni ko'chirishda ishlatilgan.

VIII asrning oxirlariga kelib, Arab xalifaligi bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib keta boshladi. Bu davlatlarga arab tili va yozuvning hukmron mavqeい baribir saqlanib qolaveradi, shu bilan birga, arab yozuvining birmuncha farqli tomonlarga ega bo'lgan yangi grafik ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Shu tariqa arab yozuvining juda ko'plab turli ko'rinishlari yuzaga kelgan (nasta'liq, ta'liq, riqo', suls va h.k.).

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda hukmronlik qilib turgan vaqtida arab yozuvining turli shakllarida yoziladigan bir xat yaratgan. Bu xatda arab yozuvi turkiy til ifodasi uchun moslashtirilgan bo'lib, u nozik va ingichka bir shaklda yozilgan. Bobur tarafidan ixtiro etilgan bu xat «Xatti Boburiy» deb atalgan va shu nom bilan keng shuhrat qozongan. Lekin u keng ommalashmay qolgan.

1920-1921 - yillarda arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'zgartirishlar kiritildi va bu yozuv 1929-yilgacha qo'llanildi. 1929-1940 yillarda lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi, 1940-yildan esa kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi ishlatildi. 1993-yilda lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida qonun qabul qilindi.



1929-1940 - yillarda ishlatilgan lotin yozuvi namunasi

Yuqorida qayd etilgan alifbolardan eng ko‘p – 1300 yil mobaynida qo’llanilgani – bu arab alifbosi asosidagi yozuvimizdir. Shu davr mobaynida yaratilgan boy adabiy va ilmiy merosni o‘qish va o‘rganish uchun arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvini bilish muhim.

Zamonaviy arab alifbosida tinish belgilar va raqamlarning ifodalanishi

Qadimgi manbalarda tinish belgilar va raqamlarning ifodalanishi rasm bo‘lmagan. Sahifalarning tartiblanishi “poygir” orqali amalga oshirilgan. Poygirning lug‘aviy ma’nosи “oyoq olish, qadam qo‘yish” demakdir. Bu keyingi sahifaning boshidagi so‘zni oldingi sahifaning ostiga kichik qilib yozib qo‘yish orqali varaqlarni tartiblashtirishdir. Garchi hozirda istifoda etadiganimiz arab raqamlari deb yuritilsa ham ular orasida bir muncha tafovut bor.

Endilikda sonlarning ifodalanishi quyidagi yo‘sinda qabul qilingan. Qiyoslang:

•	፣	፣	፣	፣	،	،	،	،	،
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9

Eslatma: raqamlar arab yozuvi kabi o‘ngdan chapga tomon yozilmaydi. Aksincha, odatdagidek chapdan o‘ngga qarab ifoda etiladi.

Tinish belgilarda ham ayrimlarining teskari shaklda ifoda etilishini ko‘ramiz. Nuqta va undov belgining ifodasida farq yo‘q. Solishtiring:


؟	so‘roq belgisi	?
‘	vergul	,
‘	nuqtali vergul	;

ARAB ALIFBOSI ASOSIDAGI ESKI O'ZBEK YOZUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Arab alifbosida 28 ta harf bo'lib, forslar tomonidan 4 ta harf qo'shilgan. Bular – arab tilida mavjud bo'limgan to'rtta tovushni ifodalaydigan "Pe", "Chim", "Je", "Gof" harflaridir. Eski o'zbek alifbosida ham ana shu 32 ta harf qo'llaniladi. Arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Xat o'ngdan chapga tomon yoziladi. Harflarning ifodasida ham qalamning harakati o'ngdan chapga qarab yuritiladi.
2. Yozuvda bosh va kichik harflar ajratilmaydi. Atoqli ot va gap boshi ma'no-mazmundan kelib chiqqan holda anglashiladi.
3. Harflar o'zaro bog'lanish-bog'lanmasliklari jihatidan ikki guruhga bo'linadi.

Munfasil harflar o'zidan oldingi, ya'ni o'ng tomonidan keluvchi harflarga qo'shiladi. Eski o'zbek yozuvida 7 ta munfasil harf mavjud bo'lib, ularni timsoliy ma'noda bir qo'llik harflar deyish mumkin.



Muttasil harflar har ikkala tomonidan, ya'ni o'ng va chapdan kelgan harflarga qo'shib yoziladi. Eski o'zbek yozuvida 25 ta muttasil harf mavjud bo'lib, ularni timsoliy ma'noda ikki qo'llik harflar deyish mumkin.

4. Qisqa unlilar (a, i(e), u) asosan yozuvda ifodalanmaydi.

Masalan, "maktab" so'zi "mktb" مكتب, "xodim" – "xodm" خادم, "bulbul" – "blbl" بلبل shaklida yoziladi.

5. So'z o'zagida bir xil qo'sh undosh kelsa, ulardan faqat bittasi yoziladi.

Masalan, "murakkab" so'zi "mrkb" مرکب, "naqqosh" – "nqosh" نقاش, "tafakkur" "tfkr" تفکر shaklida yoziladi.

6. Eski manbalarda tinish belgilari ifodalanmagan va bo‘g‘in ko‘chirilmagan.

7. Alifbodagi harflarning aksariyati asosan 10 ta tayanch belgi bilan yasaladi. O‘xhash harflar bir-biridan ifodalaydigan tovushi va nuqtalarining o‘rni hamda soni bilan farqlanadi, xolos.

ب ح د ر س ص ط ع ف ک

*Alifbodur xat-u savod beshigi,
U birlan ochilur bilim eshigi.
Ko ‘zlarning nuri-yu, dillar g ‘ururi,
U birlan zohirdir ellar shuuri.

Turkiy savod chiqarishga ixlosmand,
Diqqat bilan tinglang, aytay sizga pand.
Bu yozuvni desa bo ‘lur bokira,
Tafakkur ham topishmoq-u xotira.

Naqsh-u tasvir, riyoziyot ham bunda,
Tarix, mantiq, falakiyot ham unda.

Quloq bering yana menga bir lahza,
Zukkolik, topqirlik hamda hofiza.
Qunt-u ixlos hamda sabot-matonat,
Jur ’at-u jasorat, g ‘ayrat-shijoat.

Alar bari bo ‘lsa sizda mujassam,
Bilishingiz tayin turur men aytsam.*

Qo ‘shko ‘prilizoda

*Eski alifboni dilga qilsang jo,
Mana bu hikmatni unutma aslo!
Egri niyatni-yu, yuvuqsiz qo 'lni
Sira yoqtirmaydi o 'sha alifbo.*

*Abdulla Oripov
O'zbekiston xalq shoiri*



ايسکى الفبани دل گاقیلسانگ جا
منه бо حكمت نى او نوتма اصلا
ايگرى نىت نى يۇقىز قول نى
سېرە ياقتىرمайдى او شە الفبا

عبدالله عارف

ALIFBONING NASX XATIDAGI SHAKLI

Harfning nomi	Harfning hozirgi shakli	Yolg'iz holda	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida
Alif	O, a	ا	ل	ل	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	ث	ث	ث	ث
Jim	J	ج	ج	ج	ج
Che	Ch	چ	چ	چ	چ
He	He	ح	ح	ح	ح
Xe	Xe	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Ze	ز	ز	ز	ز
Je	Je	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش


Harfning nomi	Harfning hozirgi shakli	Yolg'iz holda	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
Ayn	,	ع	ح	خ	ع
G'ayn	G'	غ	خ	خ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ك	ك	ك	ك
Ge	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	V	و	و	و	و
Ha	H	ه	ه	ه	ه
Ya	Y	ي	ي	ي	ي

ALIFBONING NASTA'LIQ XATIDAGI SHAKLI

Harfning nomi	Harfning hozirgi shakli	Yolg'iz holda	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida
Alif	O, a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	ش	ش	ش	ش
Jim	J	ج	ج	ج	ج
Che	Ch	چ	چ	چ	چ
He	He	ح	ح	ح	ح
Xe	Xe	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Ze	ز	ز	ز	ز
Je	Je	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش

Harfning nomi	Harfning hozirgi shakli	Yolg'iz holda	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
Ayn	,	ع	ح	ع	ع
G'ayn	G'	غ	خ	غ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ك	ك	ك	ك
Ge	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	V	و	و	و	و
Ha	H	ه	ـ	هـ	هـ
Ya	Y	ي	ـ	ـيـ	ـيـ





1-SABOQ

“ALIF ” HARFI

Alif



A

“Alif” harfi:

- munfasil harf;
- satr chizig‘ida yoziladi.

“Alif” harfining yozilishi

alohida turganda:



(qalam tepadan pastga qarab yuritiladi)

o‘zidan oldingi harfga bog‘langanda:



(pastdan yuqoriga tomon yuritiladi).

Eslatma:

- “o”, “i”, “e”, “u”, “o” unli tovushlarini ham ifodalaydi;
- faqat so‘z boshida “o” tovushini bildirganda ustiga “madd” belgisi qo‘yiladi: Ў



1. “Alif” harfi qaysi tovushlarni ifodalaydi?
2. “Alif”ning alohida va bog‘langan shakllarini yozganda qalam harakati qanday bo‘ladi?
3. “Alif” qanday so‘zlarda keladi?
4. “Madd”ning ma’nosи va vazifasi nima?

Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“ALIF” NE DEYDUR?

“Alif” derlar mening qutlug‘ otimni,
Sizga bir-bir bayon aylay zotimni.

Mening asli tabiatim qiziqdir,
Nodon: “kaltak”, - deydi, sodda: “chiziq”, - der.

Aytadurlar: “Alif” shamga o‘xshaydi,
Ham navnihol, ham qalamga o‘xshaydi.

“Ota-on”, “aka-uka”da borman.
“Odobli”, “a’lochi”, “bola” ga yorman.
“Insof”, “iyomon”, “e’tiqod” da barqaror,
Bularga yot nokaslardan men bezor.

Chiziq uzra ham mag‘rur, ham payvasta,
Dilim og‘rir tushirsalar sal pastga.



Tushirmoqchi bo‘lsang meni bir xatga,
Tezroq qo‘lga qalam olgin, albatta.

Aytay sizga qalamingiz yurishin,
Qaydan boshlab, qayda to‘xtab turishin.
Agar yakka shaklim yozmoq bo‘lsalar,
Quyi qarab yurgay qalam muqarrar.

Bog‘langan shaklimni yozsangiz magar,
Pastdan yuqoriga qarab o‘rmalar.
Ba’zan “A” ham, ba’zan “O” ham bo‘lurman,
“I” ga, “E”ga dildan xizmat qilurman.

O‘rnim bordur “U” ham “O”dek harflarda,
Fazilatim ko‘rarsiz so‘z, gaplarda.
So‘z boshida –“O”da qalpoq kiyurman,
Qalpoq –“madd”, ma’nisin cho‘zmoq deyurman.

Oldin kelgan harfga qo‘lim beraman.
Keyin kelsa, qovoq uyib turaman.



Uyga vazifa.

1. “Alif” harfining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Madd belgili “Alif” harfini bir necha qatordan yozib mashq qiling.
3. Mashq daftaridan mazkur harfga tegishli qismini to‘ldiring.



2-SABOQ

ЎТАYANCH BELGILI HARFLAR

Dol

ດ

D

Zol

ذ

Z

“Dol” va “Zol” harflari:

- munfasil harflar;
- satr chizig‘ida yoziladi;
- bitta nuqta bilan farqlanadi.

“Dol” va “Zol” harflarining yozilishi

alohida turganda:

ດ
ذ

o‘zidan oldingi harfga bog‘langanda:

ڭ
ڏ

Eslatma:

- “Zol” harfi ona tilimizdagи arab tili orqali kirib kelgan so‘zlarda “z” tovushini ifodalash uchun qo‘llaniladi;
- “Zol” ڏ harfi “Dol” ດ harfidan ustidagi bitta nuqtasi bilan farq qiladi.



1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.


"DOL" NE DEYDUR?

"Dol" deydilar mening ismimni,
Notavon deysiz ko'rib jismimni.

"Alif" tikdur, misoli shAMDUR,
Men egikman, qomatim xAMDUR.

"Alif" lar yonida doim "ado" man,
Shohlar oldida misli gadoman.

Kim gajakka, kimlar oyga o'xshatar,
Kim kamalak, kimlar yoyga o'xshatar.



ادا

O'ngdan kelganlarga berurman ilgim,
So'ldan kelgalardan torturman o'zim.

"Dono"-yu "davlat" da kelurman yakkash,
"Nido"-yu "muddat" da bo'lurman tirkash.

Nuqta-yu xolga hech muhtoj emasman,
O'zim haqda o'zga narsa demasman.





1. “Dol” qaysi tovushni ifoda etadi?
2. “Dol” ni nimalarga qiyos qilish mumkin?
3. “Dol” qaysi so‘zlarda yoziladi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Ikki “Dol” ikki yonda,
Xayoli parishon-da.

Qo‘llashmas bir makonda
“Re” dan o‘ng-so‘l tomonda

G‘am-g‘ussadan bukilgan,
Hamda boshi egilgan.

Qarashar u yon, bu yon,
Ayt, qay so‘z bunda pinhon?

3. “Ado” so‘zini eski o‘zbek alifbosida yozing va izohlang.

4. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“ZOL” NE DEYDUR?



Menga “Zol” deb nom bermishlar,
“Dol”ga o‘xsharkan demishlar.

Xolim bordur “Dol” dan farqli,
Bilmaganning yo‘qdir aqli.

Munfasil harflarning men ham biriman,
Oldin kelgan harfga ilgim beraman.

Sof arabiylar so‘zlar asli naslimdur,
“Zokir”, “zikr”, “mazkur” mening aslimdur.



1. “Zol” qaysi tovushni ifoda etadi?
2. “Zol” qaysi jihatlari bilan “dol” dan farqlanadi?
3. “Zol” qanday so‘zlarda uchraydi?

5. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Intilganga bor iqbol,
Boshda do‘ppi keldi “Zol”.

“Kof” va “Re” apoq-chapoq,
“Zol” esa xomush shu choq.

U yolg‘iz, ishi chatoq,
“Kof” bilan “Re”-chi o‘rtoq.

Bunda ne so‘z yashirin,
Javobini oshiring.

6. Ushbu so‘z va so‘z bo‘ginlarini o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

دا

آد

دادا

ادا

آذ

داد

اذا

7. Quyidagi so‘z bo‘g‘inlari va so‘zlarni eski o‘zbek alifbosiga o‘girib daftaringizga yozing.

do
ada

od
dada

ado
zo

odo
ozo

dozo



Uyga vazifa.

1. “Dol” va “Zol” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismlarini to‘ldiring.
3. “Dol” va “Zol” harflari ishtirokidagi so‘zlarga misollar toping.

3-SABOQ

↳ TAYANCH BELGILI HARFLAR

Re



R

Ze



Z

Je



J

(“jurnal”, “jirafa”)

“Re”, “Ze” va “Je” harflari:

- munfasil harflar;
- muayyan qismigina satr chizig‘idan pastga tushadi.

“Re”, “Ze” va “Je” harflarining yozilishi:

alohida turganda:



o‘zidan oldingi harfga bog‘langanda:





Eslatma:

Ushbu harflar bir-biridan ustidagi nuqtalar soni bilan farq qiladi:

“Re” harfida nuqta yo‘q, “Ze” harfida bitta nuqta, “Je” harfida uchta nuqta qo‘yiladi.

1. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“RE” NE DEYDUR?

Otim “Re”dir, uch egizak kattasiman,

Sizga tanish munfasillar bittasiman.

Chalkashtirmang “Dol” bilan meni zinhor,

U bilan oramizda ancha farq bor.

“Dol” o‘rniga meni qo‘yib o‘qimang,

“Bad” so‘zini “bir” ekan deb to‘qimang.

Diqqat qiling, “Dol”ning boshi egikdur,

Adashmangiz, mening qaddim sal tikdur.

Oldingi harf qo‘l cho‘zsa, qo‘l bergayman,

Keyingisi kim bo‘lsa, yuz burgayman.

Oyni qiyos etdilar harfi “Dol”ga,

Nechun meni o‘xshatmaysiz hilolga.

Rahmon, Rahim deyishsalar man borman,

Roh-u rahbar uchun doim tayyorman.

Mensiz hechdir darra bilan arbob ham,

Muzrobsiz chalinmas axir, rubob ham.



مِصَاب



1. “Re” harfi qaysi harflar bilan o‘xshash, egizak?
2. “Re” harfi qo‘lyozma kitoblarda qaysi harfga o‘xshab ketadi?
3. Satr chizig‘iga nisbatan uning o‘rni qanday?
4. “Re” harfi qaysi so‘zlarda kelishi mumkin?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Arbob urarmish har bob bilan
“Re” ham keldi shu tob bilan.
“Bob” oldida turar “Re”
Chaling degan xitob bilan.
Siz ham tayyor bo‘ling-da,
To‘la, to‘g‘ri javob bilan.
Ish qilingiz savob bilan,
Birga bo‘ling kitob bilan.
Harf, so‘z jam bo‘lsa shu on
Qanday so‘z bunda pinhon?

3. Ushbu so‘z va so‘z bo‘ginlarini o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

را

درد

دارا

آرا

آرد

ردا

ادر

دار

ارا

4. Quyidagi so‘z bo‘g‘inlari va so‘zlarni eski o‘zbek alifboga o‘giring.

or
dara

dor
ada


ord (un)
rido (darveshlarning ustki kiyimi)

dar (eshik)

doro

oro

5. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.



“ZE” NE DEYDUR?

“Ze” deya ot qo‘ymish donolar menga,
Quloq sol, sifatim aytayin senga.

“Z” tovushin ifodalab kelurman,
O‘z holimni o‘zim yaxshi bilurman.
O‘ngdan kelgan harf bilan bordur ishim,
Chapdan kelganiga aslo, yo‘q hushim.

Asli joyim erur turkiy zabonda,
Yana dersiz: qaysi zamin-zamonda?
Zebolar zulflari, Zaynab ziynati,
Zargarning zari-yu zo‘rning qudrati.

Boshimdagi nuqtaning xosiyati ko‘p,
Tushirib qoldirmang, yodda saqlang xo‘b
Fuzuliy bobom ham bu haqda bitgan:
”O‘lsun ul qalamki, ko‘zni ko‘r etgan”.



1. “Ze” harfining o‘ziga o‘xhash harflardan farqi nimada?
2. “Ze” ona tilimizdagi qaysi tovushga mos keladi?
3. “Ze” qanday so‘zlarda uchraydi?
4. “Qalam o‘lsun, ko‘zni ko‘r qilg‘on” iborasini qanday sharhlaysiz?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

“Ze” kelardi zebolanib,
“Yoy” ham unga ibolanib.
So‘ngra paydo bo‘ldi “Nun”,
Umringiz bo‘lsin uzun.
Qiz ismiga bo‘lar tobe,
Kelib qo‘silsa hamda “Be”.

Otabekni yig‘latgan,
Yurak-bag‘rin tig‘latgan
Kim edi o‘sha jonon?
Endi aylangiz bayon.
Bo‘ldi-ku sizga ayon!
Qay ism bunda pinhon?

7. Ushbu so‘z va so‘z bo‘ginlarini o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

زا

دزد

داز

آزار

زار

راز

از

زر

ازا

آز

زدا

زر

زد

زرد

زارا

8. Quyidagi so‘z bo‘g‘inlari va so‘zlarni eski o‘zbek alifboga o‘giring.

zor

ozod

oz

roz

zor

duzd (o‘g‘ri)

aza

zar

zard (sariq)

ozor

zada

oro

9. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.



“JE” NE DEYDUR?

Sening otning “Je” bo‘lar deb suydilar,

Boshim uzra uchta nuqta qo‘ydilar.

Forsiy xalqlar alifboga kirdizib,

“Re” va “Ze” ga uka bo‘lgan, - dedilar.



“Ajdar”, “mujda”, “gajdum” mensiz yozilmas,
“Mujgon” ila hech qachon choh qazilmas.

Oldin kelib qo‘l cho‘zgandan shodman doim,
Keyin kelib qo‘l cho‘zsalar, yo‘q parvoym.

اژدر

Mujda – xush xabar, gajdum – chayon, mujgon – kiprik.



1. “Je” harfini nimaga qiyos qilsa bo‘ladi?
2. “Je” o‘zbek tilidag qaysi tovushga yaqin keladi?
3. Arab yozuvida mavjud bo‘lmagan ushbu harf kimlar tomonidan alifboga kiritilgan?

10. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Ko‘zda emas, kiprikda u,
Qosh-u ko‘zga ko‘prik-da, u
So‘z boshida “Mim” keldi
Shu on “Je”ga qo‘l berdi.
“Gof-alif” ham bir bo‘ldi

“Nun” yakka holda qoldi.
To‘rt harf unga do‘q qildi,
Kipriklarin o‘q qildi.
Nihoyada “Nun” nolon,
Qay so‘z bundadur nihon?

11. Ushbu so‘z va so‘z bo‘g‘inlarini o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

اژدر

ڇا

دڙ

داڙ

اڙ

ڙر

آڙار

ڙار

12. Quyidagi so‘z bo‘g‘inlari va so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. jo jar ajdar jara



Uyga vazifa.

1. “Re”, “Ze” va “Je” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismlarini to‘ldiring.

4-SABOQ

“VOV” HARFI

Vov

ۋ

V_(u, o')

“Vov” harfi:

- munfasil harf;
- pastki qismi satr chizig‘idan tushirib yoziladi;
- asosan “V” undoshini ifodalaydi.

“Vov” harfining yozilishi

alohida turganda:

ۋ

o‘zidan oldingi harfga bog‘langanda:

ۋ


Eslatma:

“Vov” harfi “U” va “O” harflarining ifodasida ham xizmat qiladi. So‘z boshida “u” va “o” harflari kelsa, ular oldidan “Alif” orttirilishi shart, so‘z o‘rtasi va oxirida esa shart emas. “Alif” va “Vov” yonma – yon kelganida har ikkalasi alohida harf bo‘lib kelishi ham mumkin: “A” va “V”

u, o‘, av – او



1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.



اوزوک وطن

“VOV” NE DEYDUR?

“Vov” deydilar so‘rasangiz otimni,

Shoshilingiz bilmoqqa sifotimni.

Kimki bizga chin dildan qilsa ixlos,

Bilimdonlik anga bo‘lur do‘s-t-u xos.

Munfasil harflarning eng so‘nggisiman,

“V”, “U”, “O” tovushlarin anglatguchiman.

Demangiz meni bevafo,

Qilurman va’daga vafo.

“Vov” yana nelarda mayjud,

Men bilan vahdat-u vujud.

Vaqt-u valiy ham vazir,

Volidaga ham dilpazir.

Ham voha, ham vodiydaman,

O‘quvchiga nurdiydaman.

O‘rnim “vasl”-u “vasiyat”da,

Xorazmdek viloyatda.

Meni “Dol”ga o‘xshaturlar qo‘lyozmada,

Buni shogird tutishi shart doim yodda.



Ko‘rinishim aslida, bir gulga monand
 Ayrimlar aytadur, “vergulga monand”.

Qiyos uchun ne desalar desin lekin,
 “Voris”, “Vatan” so‘zlarini yozing sekin.

So‘z boshida “U” yoki “O” bo‘lib kelsam,
 Menden avval “Alif” turar biling, hardam,

O‘zga paytda “Alif” menga darkor emas,
 Menden keyin kelgan harfga qo‘lim bormas.

Mashg‘ulotda mening imlom biroz qiyin,
 Vale doim takrorlansa bilish tayin.



1. “Vov” qaysi tinish belgiga o‘xshaydi?
2. “Vov” nechta tovushni ifodalashga xizmat qiladi?
3. Nasta’liq xatida uni “Dol”ga o‘xshatishlarining sababi nimada?
4. So‘z boshida “Vov” oldidan “Alif” harfi kelsa, qanday harflarni ifodalaydi?
5. “Vov” harfi ishtirok etuvchi so‘zlardan misollar keltira olasizmi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Uni sevish iymondan
 Yiroq turing gumondan.
 Barcha bunga “tan” bergen
 Faxrim deb ko‘krak kergan.
 Ilk harfidir uning “Vov”
 Javobin toping darrov.

3. Ushbu so‘z va so‘z bo‘g‘inlarini o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

راور	آواز	دواز	زاور	دور	دوا
روا	آوارا	آوارا	دواد	او	دواو
راو	اورار	اوراز	اوزار	اوردا	اوردا

4. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek alifboga o‘giring.

Dovud, ovda, o‘rda, davrada, darrov, zovur, davr, o‘zar, O‘roz, uzar, avrar, vov, ravo



Uyga vazifa

Munfasil harflar bo‘yicha yakuniy mashg‘ulotlar

1. 7 ta munfasil harflarning alohida va bog‘langan shakllarini qayta-qayta yozing, mashq daftarining ularga tegishli joylarini to‘ldiring.

2. Munfasil, ya’ni bir tomondan, o‘zidan oldin kelgan harfga qo‘shib yoziluvchi harflar ishtirokidagi so‘z va so‘z bo‘g‘inlaridan tarkib topgan ushbu matnni o‘qing, ko‘chirib yozing, lotin yozuvi asosidagi alifboga o‘giring.

ادر آرا دار آو

دور درد نر

راز آزادا آواز

زار اور دادا

در آد ردا

دارو آز روا

آرد	نور	زاور
آوارا	زاد	آزاد
ازا	آزادا	دارا
او	درادا	داردا
ازاو	اوزار	اوراز
اورار	دو	دادود
داور	آوازا	واو

دراو داودر

آزاردا اراوادا

دوا رودا روزадар

اژدر درادا.

روزا اوردادадор.

اورаз آودадор.

3. Ushbu jumlalarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Dovud darada.

O‘roz ovdadur.

Ajdar dor uzradur.

Doro aravadadur.

Ozoda adirda.

Ozod o‘rdedadadur.

5-SABOQ

ТАЯНЧ BELGILI HARFLAR

Be	ب	B
Pe	پ	P
Te	ٿ	T
Se	ڦ	S

“Be”, “Pe”, “Te” va “Se” harflari:

- muttasil harflar;
- satr chizig‘ida yoziladi;
- bir-biridan ostiga va ustiga qo‘yiladigan nuqtalarning o‘rni va soni bilan farq qiladi.

“Be”, “Pe”, “Te” va “Se” harflarining yozilishi:

alohida turganda: so‘z oxirida: so‘z o‘rtasida: so‘z boshida:

ب

پ

ٿ

ب

پ

ٿ

ٻ

ڦ

ڦ

ٻ

ڦ

ڦ

ث

ث

ڭ

ڭ

O'zaro qo'shilishi:

ب ب ب

ب ب ب

ب ب ب

پ پ پ

پ پ پ

پ پ پ

ت ت ت

ت ت ت

ت ت ت


ڭ ڭ ڭ

ڭ ڭ ڭ

ڭ ڭ ڭ

1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

ل ب



"BE" NE DEYDUR?

Menga "BE"deb nom berdilar,

Bir nuqta in'om berdilar.

Muttasillar boshlang'ichi,

To'rt og'aynining to'ng'ichi.

"Pe", "Te", "Se" senga ukadir,

Umid ila ko'z tikadir.

"Bobo" ham, "bola" ham sendan rozidir,


Ikkita "BE" misli bir tarozidir.

Kimningdir nazdida men go'yo "lab"man,

Kimning nazarida "qayiq" bo'libman.

Yodda tuting "qayiq", baliq" ustidadur,

Bahrom baliq boqmoqlikning qasdidadur.





1. “Be” o‘zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. “Be” harfini nimalarga o‘xshatish mumkin?
3. “Be” harfi qanday so‘zlarda keladi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

So‘zboshidur asli salom,

Bunda yashirin bir kalom.

Aql-u hushingni ko‘chirar

Xayol qushini uchirar,

Ikkilansa “Be” hamda “lom”

Paydo bo‘lar o‘shal kalom.

Arab tilida “andalib”

Top, ilmga amal qilib.

Navoiyga navo bergen,

She’rga hazm-u havo bergen

Oshiqlar ohi-vohi u,

Ma’shuqanining hamrohi u.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

رب	بور	بر	بار	باير	بارار
باد	باب	راباب	رباب	ابا	اب
بادا	بوز	آداب	آباد	باز	بد
آبرو	ادب	ابد.	بو	آب	دور.

بابردا رباب و دوتار باردور .
ابرار بابا بازار بارادر .

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

adab	abad	arbob	bod	bad (yomon)	ob (suv)	bobo
odob	obod	bozor	Dorob	barbod		rubob

Abrorda rubob bor. Arbob bozor boradur.

“BOBUR” ismi qanday yoziladi?

1–bosqich: Dastavval, ushbu so‘zni tashkil etgan harflarni alifboden ajratib olamiz.

ر و ب آ ب

2–bosqich: Endi ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab izchil joylashtiramiz:

1) “B” harfi so‘zning avvalida kelayotgani uchun uni ifodalovchi “Be” harfining so‘z boshidagi shaklini yozamiz. ب

2) Ikkinchi harf – “O”. Uni ifodalovchi “Alif” ning bog‘langan shaklini yozamiz: ل chunki, “Alif” faqat o‘zidan oldingi harfga bog‘lanadi. “Be” ham bog‘lanish xususiyatiga ega.

3) Uchinchi harf – B. So‘z o‘rtasida kelayotgan bo‘lsa ham, uni ifodalovchi “Be” ning so‘z boshidagisini yozamiz. ب Chunki, “Alif” munfasil harf bo‘lgani uchun o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaydi.

4) To‘rtinchi harf - “U”. Qisqa unli bo‘lgani uchun “U” و tushirib qoldiriladi.



5) So‘z oxiridagi “Re” harfi o‘zidan oldingi muttasil harfga bog‘lanuvchi bo‘lgani sababli “Re”ga qo‘l cho‘zadi. ر

3 – *bosqich*: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi.

ب آب ور ← ب ل ب + ر ← ب ا بر

Yodda tuting! Biron so‘zni yozmoqchi bo‘lsangiz, undagi har bir harf o‘zidan oldin keladigan harfga qarab, ish tutadi. Qo‘l bersa qo‘l beradi, aks holda, chap tomonidan kelgan harf bilan bog‘lanib ketaveradi.

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.



“PE” NE DEYDUR?



Meni forslar Alifboga kiritganlar,
“Uch nuqtalik “Pe” san”, - deya yuritganlar.
“Oppoq paxta” so‘zin yozmoq ko‘zlarlar,
Alifboden albat, bizni izlarlar.

Doim ham kelmasman har turlik xatda,
Vazifamni og‘am eplar, albatta.
Qo‘l berurman qo‘lin cho‘zgan qo‘sningma,
Munfasillar hayron turar ishingga.

Alifboda tutdim uchinchi o‘rin,
Meni ham “qayiqqa” o‘xshatish mumkin.
Oy harfi, na quyosh, Abjadda yo‘qman,
“Ko‘kaldoshlar bor-ku”, - deb ko‘ngli to‘qman.

Shul sababdin arablar qo‘llamaslar,
Alifboda bor-yo‘qligim so‘rmaslar.

Men zarurman forsiy, turkiy tillarga,
O‘z lafzida “Pe” harfi bor ellarga.

Izoh: Qo'lyozma kitoblarda "Pe" harfi doim ham yozilavermaydi. Uning vazifasini ko'pincha "Be" harfi bajargan. Uning nuqtalari birlashtirilgan holatda uchburchak shaklida ifodalangan.


پ ب ئ



1. "Pe" harfi alifboga kimlar tomonidan kiritilgan?
2. Qo'lyozma manbalarda "Pe" ning vazifasini qaysi harf ado etgan?
3. "Pe" ning uch nuqtasini xattotlar qay tarzda qo'yishgan?

6. Harfiy chistonni o'qing va javobini toping.

To'rtovlon bo'lsa tugal
Unmaganin undirar,
Ham boshiga shu mahal
Baxt qushini qo'ndirar.
To'rt harf bo'lsa jamuljam,
Ko'ngullar bo'lar xurram.
Chunki u boylik timsoli
Ona yurt istiqboli.
"Pe" "Xe" bilan bog'landi
"Xe" ham "Te"ga chog'landi.
Oxirda "Hoyi havvaz"
Javobni tezda yetkaz!




7. Ushbu so'zlarni o'qing. Mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

ب پ	ا پ	ا پ	ب پ	ب پ	ب پ	ب پ
پادا	پرواز	پرداز	پدر	ارپا	پارا	پر
پادور	اوپادور	زپ	پردا	پردا	پر	پار

8. Ushbu so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

opa	par	purob (sersuv)	pardoz		
Pop	parvoz	parda	barpo	poda	padar (ota).

9. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.



“TE” NE DEYDUR?

Otim so‘rsangiz “TE” durman,
Harfush-shamsga mutedurman.



To‘rt xil ko‘rinishim bordur,
Muttasillar menga yordur.

“Ikki kishisi bor qayiq”,
Desangiz gar menga loyiq.

“Ot” ham “toy” ham mensiz yurmas,
Yurolmas ne, balki bo‘lmas.

“Kitob”, “maktab” mensiz emas,
Temur ham Turonda turmas.

Turk-u turkman, taxt-u toj,
Tog‘-u tosh menga muhtoj.



Izoh: ت ning ikki nuqtasi qo‘lyozma manbalarda birlashtirib yoki kichik chiziqcha bilan ham ifodalanadi. Ba’zi qadimgi kitoblarda ikkita huqta yonmayon emas, balki ustma-ust qo‘yib ketilishi ham kuzatiladi. ت ت

“Te” so‘z oxirida kelgan arabcha so‘zlarda sal boshqacharoq ifodalanadi.
“Hoyi havvaz” harfi yozilib, uning ustiga ikki nuqta qo‘yiladi. ئ

قدرت - قدرت

Bunday ifodalanishiga ئ te marbuta, bunday shaklga esa ت te mamduda deyiladi.



1. “Te” ona tilimizdagi qayssi tovushga aynan mos keladi?
2. Xattotlar “Te” harfining nuqtalarini qanday yo‘sinda qo‘yishadi?
3. “Te” bilan boshlanib “Te” bilan tugovchi so‘zlardan nechta so‘z ayta olasiz?

10. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Shundayin bir so‘z bordir
Barcha qatlamga yordir.
“Te” bilandur ibtidosi,
“Te” bilandur intihosi.
O‘rtada uchta harf bor
Buni bilmoqlik darkor -
“Re” bilan “Be” hamda “Yoy”
Topmasang holingga voy.
Ular bo‘lsa jamuljam
Qay so‘z bo‘lar mujassam?

11. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

تۇرت تار تار تۈز تۈر تا اوت
اورتا باتادور آت تاپا پات داوات
آرتار آرت اور تار زات
آوتادور پىت پات تىربوز او تار
او تا آتا تارتادور نوب توت
اوزاتادور بوت توزات ربات تاپ


تابوت تاتар نورат . تربت بابا
 تو تاتадор. تраб آتا نوت او زاتадор.
 بو نون براز او زون و تاردور .

12. Ushbu so‘z va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

tor	ortar	o‘tar	Tavrot	ovut	top	
to‘p	topt	tuz	o‘t	ot	ravot	bo‘ta
dovot	pat	to‘r	tur	turt	turtar	but
To‘ra ota to‘p uzatadur.			Turob otada to‘rt tup tut bor.			

13. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“SE” NE DEYDUR?



Qiyofatim tojga mengzagan “Se”man,
 “Be”, “Pe” hamda “Te”ning ukasiman.

Alifboda tartib raqam bo‘ldi besh,
 Buni yaxshi biling, ortmasin tashvish.

Uchta bo‘lur nuqtalarim jam aylasak,
 “Pe” harfidan farqi ne deb, shart boylasak.

“Pe”da uchta nuqta misradan pastda,
 Menda uchta nuqta doimo ustda.

Turkiy “S” ga yaqinman talaffuzda,
 Ishtirok eturman arabiyl so‘zda.

Sobit-u Surayyo bilan inoqman,
 Samar-u Sarvatga doim qo‘noqman.



Izoh: “Se” tilimizga arab tili orqali kirib kelgan so‘zlarda ishlataladi.



1. “Se” va “Pe” harflari nuqtalari qo‘yilishiga qarab qanday farqlanadi?
2. “Se” talaffuzi jihatidan qaysi tilga mansub?
3. “Se” ishtirokidagi qanday so‘zlarni bilasiz?

14. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

“Se” keladi oldinda

Olti harf asli lotinda.

Unga berar qo‘lni “Mim”

Tezda toparsiz balkim.

“Re” ham ularga qo‘ldosh,

“Hoyi havvaz” yakka bosh.

Jam bo‘lsalar o‘shal on,

“Hosil” bo‘lar begumon.

Meva ma’nosin berar

Qaysi o‘quvchi bilar?

15. Ushbu so‘zlar va gapni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

ثابت اثبات ثبات آثار . ثابت بازار بارا دور .

16. Ushbu so‘z va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

subut

isbot

sabot

Sobit otada dutor bor.

U bozor boradur.



Uyga vazifa.

1. “Be”, “Pe”, “Te” va “Se” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismlarini to‘ldiring.

6-SABOQ

ن va ي HARFLARI

Nun

ن

N

Yoy

ي

Y (i, e)

“Nun” va “Yoy” harflari:

- muttasil harflar;
- bularning alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi, so‘z boshi va o‘rtasidagi shakllari satr chizig‘ida yoziladi;
- bir-biridan shakli hamda ostiga va ustiga qo‘yiladigan nuqtalarning o‘rnini va sonini bilan farq qiladi.

“Nun” va “Yoy”ning yozilishi:

alohida turganda:

ن

ي

so‘z oxirida:

ن

ي

so‘z o‘rtasida:

ڏ

ٻ

so‘z boshida:

ڻ

ٻ

O‘zaro qo‘shilishi:

ننن

ڏڏڏ

ننن

يېلىرى

يې بىرى

ىرىيە

ئەن

Izoh: “Nun” qo‘lyozma manbalarda quyidagi usulda yoziladi:

1. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“NUN” NE DEYDUR?

“Nun” deydilar bizning nomni,
Eshiting ushbu kalomni.

Bir kam o‘ttizinchi harfman,
“Be”simonlarga harifman.



Ikki shaklim kelar o‘xhash,
Ayting, qay suratim uyqash?

“Be” ham menda nuqta dona,
“Qof”ga monanddur domana.

Pastda turur “Be”nuqtasi,
Ustda erur “Nun”nuqtasi.
“Be” satrning ustindadur,
“Nun” satr ostinda erur.

Domanam misli qosh erur,
Ko‘z-chi, anga yondosh erur.
Yomondur so‘zning achchig‘i,
Nuqtam ko‘zning qorachig‘i.

Nonvoyning nonida borman,
Namangan nori, nomdorman.



?

1. “Nun” ona tilimizdagи qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Mumtoz she’riyatda “Nun” harfi nimaga o‘xhatilgan?
3. “Nun” ning qo‘lyozma usuldagи shakllari qanday yo‘sinda bo‘ladi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Gullardan biri asli,
Emas gulzorning nasli.
Botqoqlikda bo‘lsa ham
Go‘zallikda emas kam.
“Nun” turar uning boshida
“Yoy” ham shunday qoshida.

“Lom”, “Vov” esa yonboshida
Birlashish ular ishi-da.
“Fe” bilan “Re” yakunida
Misli Layli Majnunida.
Bunda yo‘qdur bashorat
Bor bir so‘zga ishorat.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

نان	آنا	توران	نار	انار
اون	توزان	بوران	باران	
آنت	نروان	بنا	نبات	دربان
نادан	ازان	дана		شا
انور	نرد	نباتات	ناثر	نثر
اون	ترناو	تون	اوزان	
تون	نو		تندر	وزن
بدن	نادر	روان		تابان
تاوان	بران	بند		диндан

تابان ترازو بان بانو
 زندان نوا ارزان
 او نار بابا تر ناو و داو اندن
 او تادور . نادردا او نتا نان بار .
 تراب و انور بابا تار زندان دادور .

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Davron, anor, nordon, darbon, zindon, dovon, non, nodir, narvon, tarnov, azon, butun, ravon, dandon, nur, arzon, bonu.

Anvar otada o‘nta anor bor.
Norbobo zindonbondur.

U dovondan o‘tadur.
Turob zindonbanddur.

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“YOY” NE DEYDUR?

Otimni “Yoy” demishlar,
Chiroyga boy demishlar.

Shakl-u o‘rnim xuddi “Nun” dek,
Kajdurman charxi gardundek.
“Be”, “Pe”, “Te”, “Se” bizga yordur,
Menda ikki nuqta bordur.


Ikki shaklim ularga mos,
O‘zingiz, ayting iltimos.
Nuqtam “Te” ga teskaridur,
Ular mendan ilgaridur.



So‘z oxiri, yakka shakl,
 Satrdan tushar anglagil.
 Bukilgan yoydek suratim,
 O‘rdag-u g‘ozdek kelbatim.
 Yetti qat yerning tagida,
 “Yashin”-u “yaxshi”, “yangi” da.
 “Yunus”, “Yulduz” va “yurak” da,
 Axir, doim “Yoy” kerakda.
 Yordam-u yor-u yoronda,
 Yorkent-u Yunon, Eronda.
 Osiyo, Sayram, Yamanda,
 Chinda-yu Ozarbayjonda.
 Tururman O‘zbekistonda,
 Yashayman Yoqtistonnda,



پېشىن



So‘z boshida “I”, “E” bo‘lsam hamono,
 “Alif” turar mendan oldin doimo.
 So‘z o‘rtasi “Alif”ga hech zorim yo‘q,
 So‘z so‘nginda ham aning darkori yo‘q.
 “O” bo‘lurman ba’zi bir kalomlarda,
 Ko‘p emasdur quyidagi nomlarda:
 Mustafo-yu Murtazo-yu ham Muso,
 Yahyo bilan Laylo-yu hatto Iso.
 Bu kabi so‘zlarda “Yoy” oxirdadur,
 Nomin desam, “Alifi maqsura”dur.

Izoh: “Yoy”ning so‘z oxiridagi shakli qo‘lyozma manbalarda yoyib yoziladi.

Arab tili orqali kirib kelgan ayrim so‘z va ismlarda “Yoy” so‘z oxirida kelib “o” tovushi kabi o‘qiladi, lekin yozuvda “Yoy” yozilishi shart. Misol: hatto - حٰتٰى Iso - يٰھٰي - عٰبٰسٰى , Yahyo - يٰھٰي - بٰنٰجٰا “Alifi maqsura” deyiladi.

“I” va “E” harflari bilan boshlanuvchi so‘zlar kelganda, “Yoy” harfining oldidan “Alif” harfi orttirilishi shart.

Misol: Ip, echki. اپ

YE - بیت ی + ی

YO - یا ی + ی

YU - یو یو + ی

YA - یه تو یه + ی



1. “Yoy” qanday harflarni ifodalashga xizmat qiladi?
2. “Yoy” so‘z boshida kelganda qaysi harf orttiriladi va qanday vazifani bajaradi?
3. “Yoy” harfini nimaga tashbeh qilish mumkin?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Fursatni bermasdan boy
Yetib keldi avval “Yoy”.
Chaqqonlik bilan darrov
Unga qo‘lin cho‘zdi “Vov”
Teskari o‘girilib “Lom”
Ularga bermay salom,
“Dol”ga qo‘lini cho‘zdi.

Ulardan umid uzdi.
“Vov” va “Ze” yolg‘iz qolib
Do‘stlik ahdini buzdi.
Oyga hamroh va yondosh,
Unga hamroz ham qurdosh
Namoyon bo‘lar tunda
Ne so‘z yashirin bunda?

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

بای

بای

تاى

نای

آى

آېي

ايت

اين

پاو توی اوی ایوان ایران
پان بیت بوی آیت پاپ
بوز آیدین رویا نی پات
بیز نیز دیوار زیان انیبا
بیان دیدی دریا دیار اپتدی
ایز ایپ بنیاد زیاد یوتوب
پورت پاد زیبا نورانی
پات پازار دیو تیار ایت
زیارت زرداب ایز. زینب
اوز زریانی تاپدی. نبی بابا او
بارادور. ابرار آتا و باتو ایراندا
بندی ایدی.

8. Ushbu so‘zlarni va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Daryo, yovuz, diyor, zebo, nay, daydi, ziyon, boy, oydin, bayt, o‘y, to‘y, toy, yon, bo‘y, ziyod, nabi, anbiyo, ayron, uy, ziyorat, biyron, yor, yot, yurt, biya, er, boy, teva-tuya, bunyod, yo‘n, erta, nuroniy. Navoiy devon yozdi.

Uy ichida dovot bor edi.

U o‘z yurtida, o‘z diyorida edi.



Uyga vazifa.

- “Nun” va “Yoy” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
- Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismlarini to‘ldiring.

“Yondosh” so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich. So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ى آن د آ ش

2-bosqich: Ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish – bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab ketma-ketlikda izchil joylashtiramiz. “Yoy” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “O”ni ifodalovchi “Alif” harfini bog‘langan shaklini yozamiz. “Nun” ning so‘z boshidagi shaklini olamiz, chunki, “Alif” o‘zidan oldingi harfga bog‘lanmaydi. “Dol” harfining “Nun”ga bog‘lanadigan shaklini yozamiz. So‘ngra “Alif”ning madd belgisiz alohidagi shaklini yozamiz, u o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaligi uchun so‘z oxirida kelayotgan “Shin” ning alohidagi shaklini yozamiz. Agar davomida boshqa harf bo‘lganida “Shin” ning so‘z boshidagisini yozib davom etardik.

3-bosqich: Ularni o‘zaro bog‘laymiz. Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ى آن د آ ش + پانداش

7-SABOQ

Հ TAYANCH BELGILI HARFLAR

Jim



J

Chim



Ch

Hoyi huttiy
(He)



H

Xe



X

“Jim”, “Chim”, “Hoyi huttiy” (he) va “Xe” harflari:

- muttasil harflar;
- bularning alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi, so‘z boshi va o‘rtasidagi shakllari satr chizig‘ida yoziladi;
- bir-biridan ostiga va ustiga qo‘yiladigan nuqtalarning o‘rni va soni bilan farq qiladi.
- ushbu harflarning so‘z o‘rtasi va oxiridagi shakllari qo‘lyozma usulda yozilganda harfning o‘zak qismi ostidan emas, balki ustki qismidan bog‘lanadi.

“Jim”, “Chim”, “Hoyi huttiy”(he) va “Xe” (x) harflarining yozilishi:

alohida turganda: so‘z oxirida: so‘z o‘rtasida: so‘z boshida:



ج	ج	ج	ج
ح	ح	ح	ح
خ	خ	خ	خ

O‘zaro qo‘silishi:

ج ج ج	ج ج ج	ج ج ج
چ چ چ	چ چ چ	چ چ چ
ح ح ح	ح ح ح	ح ح ح
خ خ خ	خ خ خ	خ خ خ

1. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“JIM” NE DEYDUR?

Ismim “Jim” atabdur qay bir munajjim,
Ta’rifim aytayin, quloq soling jim.

Meni o‘xshatmishlar go‘yo gajakka,
Zarurman “jon”, “jasad”, xullas, kerakka.
“Jononning jamoli” ham men bilandur,
Dona qaro xoli ham men bilandur.



Ikkinchi tayanch belgining boshiman,
Mahbubaning misli zulf-u qoshiman.

To'rtta egizakning kattasi erdim,
O'z haqimda dag'i shularni derdim.

"Jonparvar", "Jilva"-yu "Jodu", "Jannat" ham,
Menda mujassamdu hatto "Jomi Jam".



Oldin yozadursiz o'zak qismimni,
So'ngra bog'laydursiz etak qismimni.
Etak qism forsiy tilda domana,
Kulib boqsin doim sizga zamona.



1. "Jim" harfi o'zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. "Jim" harfi nimalarga o'xshatilgan?
3. Uning so'z o'rtasi va oxiridagi shakli qo'lyozma usulda qanday yoziladi?

2. Harfiy chistonni o'qing va javobini toping.

Matonatdandir asli,
Shijoatdandir nasli.
"Jim" keldi jilolanib
So'ngra "Sin" to'lqinlanib
"Alif" unga bog'lanib.

Bir suhbat qurishardi.
Sal narida "Re" ham "Te"
Ularga boqishardi.
Harflar asta tinibdir
Qaysi so'z berkinibdir.

3. Ushbu so'zlar va gaplarni o'qing. Mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

جانان

اندیجان

نجات

جان

باج

اجداد

جادو

جريان

اورج

جابر

جبار

جيبر

تاج	تاجدار	جناب	جنابت
جاندار		جواب	رواج
جائی		جراب	جنت
جنوب	جين	برج	جانان
تجارت	بیجان	جرأت	نوجوان
جوچى	رجب	جزا	انجىر
ابچىر		ایجاد	
رنج	دراج		
جاراب	نجار		جاروب

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Jayron, jar, janob, tojdor, jodu, o‘jar, jabr, jon, jarayon, vijdon, najot, bajo, janub, ajnabiy, jonon, javon, durroj, anjir, navjuvon, ijod, rajab, jadid (yangi), ajdod, jannat.

Jabbor bobo anjir bera turib: “Buni ye”, dedi.

Rajab ota abjir va dono edi: “Do‘zaxda jazo bor”, – deb aytdi.

“Jinon” (jannat) so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich: Avvalo, so‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ج ي ن آ ن

2-bosqich: Ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish – bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab ketma-ketlikda izchil joylashtiramiz. “Jim” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “I” qisqa unli bo‘lgani uchun yozuvida ifodalanmaydi. “Nun” ning so‘z o‘rtasidagi shaklini yozamiz, chunki, uning har ikkala tomonidagi harflar qo‘l beradi. “Alif”ning bog‘langan shaklini yozamiz, u o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaligi uchun so‘z oxirida kelayotgan “Nun” ning alohidagi shaklini yozamiz. Agar davomida boshqa harf bo‘lganida “Nun”ning so‘z boshidagisi yozilib davom etilardi.

3-bosqich: Ularni o‘zaro bog‘laymiz. Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ج ن ا ن ← ج + ن + ا + ن ← ج ي ن آ ن

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“CHIM” NE DEYDUR?



Otimni so‘rsangiz deydilar “Chim”,
Ta’rifim bildirish mening burchim.

Og‘am “Jim” la ko‘kaldoshman,
U birlan doim yo‘ldoshman.
Bitta nuqta og‘am “Jim”da,
Ayting, bordur yana kimda?

Oldin o‘tganlarni eslang,
Bitta nuqtalikni izlang.
Uch nuqtalik ham bormidi!
Yo faqat menga yormidi?

پېلىڭ



پچھوچ




Chaqqon, chinor-u cho'pon,
Chumchuq, chiroy-u chopon.

چمالӣ

Chaqmoq, chiroq ham chanoq,

"Chim"siz chalajon, chatoq.

Chumoli hamda chayon,
Men tufayli yonma-yon.



1. "Chim" harfi o'zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. "Chim" ishtirokidagi so'zlardan misollar keltira olasizmi?
3. Uning so'z o'rtasi va oxiridagi shakli qo'lyozma usulda qanday yoziladi?

6. Harfiy chistonni o'qing va javobini toping.

Chinni idishdir chindan,

"Alif" qo'shildi shu on.

Chiston yasaylik bundan.

So'ngra "Yoy", "Nun" hamda "Kof"

Dastavval, "Chim" namoyon

Endi javobni tez top.

7. Ushbu so'zlar va gaplarni o'qing. Mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

چات

تینج

چrai

چai

چیت

جرچى

اوچ

اچقار

بورج

چناز

چین

چیان

پوچ

چاپан

چوپان

چادر

او تینج

تینجچىب

اچىنچىب

چورى چوت چوب آج دوچار.
 چاودр بابа چادرда چاي اپچади.
 او بیتاب اپди даро اپчди . او
 آج اپди. چوپان چnar پаниدادор.

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Chiroy, uchar, duchor, tayanch, och, choy, puch, chit, bichib,
 chin, chodir, chuchvara, uchta, ichon, chop, chet, cho‘p, otchopar.

Cho‘pon uchta chopon yopdi.

Cho‘ri cho‘tir edi.

Chori bobo tinchib achindi.

9. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“HOYI HUTTIY” NE DEYDUR?



“Hoyi huttiiy” deb qo‘ymishlar nomimni,
 Qabul aylang, avvalo, salomimni.

Mendan ham eshitgaysiz bir necha so‘z,
 O‘zimni aylagayman sizga ko‘z-ko‘z.

Men ham bamisoli mahbub zulfiman,
 O‘qigan bandanining dilin qulfiman.

Nuqta-xoli menga hech hojat emas,
 Ko‘rgan kishi usiz ham xunuk demas.

شىن حىسىن

“H” bo‘g‘iz undoshi men-la bitilur,
 Ba’zan nomim “He” deb ham aytilur.
 Hokim-u hukm-u hukumat,
 Hozir-u Hizr-u hazrat.
 Habib-u mahbub, muhabbat,
 Haq-u huquq-u haqiqat.
 Yozilgay men-la muhaqqaq,
 Yolg‘oni yo‘q, mutlaq barhaq.



Izoh: “Hoyi huttiy”ning so‘z boshidagi shakliga qo‘lyozma manbalarda ushbu belgi qo‘yib ketiladi (✉). Bu uning yumshoq talaffuz etilishini anglatadi.



1. “Hoyi huttiy” harfi o‘zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalarydi?
2. “Hoyi huttiy” ishtirokidagi so‘zlardan misollar keltira olasizmi?
3. Uning so‘z o‘rtasi va oxiridagi shakli qo‘lyozma usulda qanday yoziladi?

10. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

E’tiqod ziyorati,
 Tangrining inoyati.
 Bu ham martaba, unvon
 To‘rtta harf ikki tomon
 “Hoyi huttiy” ham “Alif”

Turisharlar bir yonda.
 Yakunda “Jim” hamda “Yoy”
 Mamnun bo‘lib olar joy.
 Qanday so‘z hosil bo‘lar,
 Topgandan ko‘ngil to‘lar

11. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

حاجب	راحت	جراحت	جراح	
احباب	بحث	حباب	حيات	
حج	حاجى	احرار	روح	ارواح

حَبِيبٌ أَحَدٌ وَاحِدٌ وَحدَتْ حَجَتْ
 حَاجَتْ بَدْرٌ حَرْبٌ حَرْبَى حَرْ.
 اَحْرَارٌ حَرِيَّتْنَى تَأْپُدَى . حَبِيبٌ وَ
 وَاحِدَجَانْ أَحَدٌ آتَانَى تَأْپُدَى .


12. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Vahdat, tavhid, Ahad, had, hudud, hijob, bahs, hojib, hab, jarroh, jarohat, Hurriyat, Ahror, hojat.

Vohid harbiydur.

Rohatoy ona haj ziyoratida.

13. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.



“XE” NE DEYDUR?

Otim “Xe” egizaklar kenjası,
 “Jim”, “Chim” hamda “He”ning erkasi.

Ular bilan hamtan-u shakldoshman,
 Satr ustida doimo safdoshman.

“Jim”da ham bir nuqta bordir,
Menga ham bir nuqta yordir.

Mening nuqtam boshim uzra,
Uniki-chi, zulfi ichra.

Xonning taxti ham men bilan,
Bosh ustidagi meng bilan.

Xeva hamda Xosiyonda,
Xonobod-u Xurosonda.

Xorazm ham Buxoroda,
Hozirman Surxondaryoda.

O‘qigan o‘zar ziyoda,
O‘qimagan bir piyoda.

O‘zimdurman bari harflar sarasi,
O‘rnim erur muttasillar orasi.

To‘rt xil shaklim tayyor turadur xatda,
Ikkisi satrda-yu, bir jufti pastda.

- 
1. “Xe” harfi o‘zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
 2. “Xe” ishtirokidagi so‘zlardan misollar keltira olasizmi?
 3. Uning so‘z o‘rtasi va oxiridagi shakli qo‘lyozma usulda qanday yoziladi?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

To‘rtta harfdan iborat,
Topgan bilimdon g‘oyat.
“Xe”dir avval kelgani
“Yoy” keldi qo‘l bergani.
Chopib keldi-da “Vov” ham

Uchalasi bo‘ldi jam.
“Hoysi havvaz” ham shu dam
Bo‘ldi to‘rtovlon xurram.
Qay so‘z bo‘larkan paydo
Qadim shahar huvaydo?

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

храб	храбат	хрж	храг
хржет	бхтиар	бхт	тхт
дрхт	дозх	хбржї	хр
хар	хзан	ахтиар	хада
хбрдар	хбр	ахбар	ажбарат
хргон	آخرت	зхаб	
гай	آخур	хон	хонхур
آخونд	хрд	хюйж	хбіш.
хрбдар	хрб	аптди	. ахбар
ана	авз	япида	хрж

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Xiroj, xarajat, xor, xar, xarobot, xoda, oxirat, baxt, ixtiyor, xun, oxun, xarob. Xabarchi xabar aytди. Baxtiyor daraxt yonida o‘tirbdur. U xabardor edi.



Uyga vazifa.

1. “Jim”, “Chim”, “Hoyi huttiy” va “Xe” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismlarini to‘ldiring.

Ҳ тayanch belgili harflar ishtirok etgan ushbu gaplarni o‘qing.

اھرارجان خارجي اجنبىنى خارجي

خبردان اپنди خبردار اپندي.

حریث اوز بورچىنى حس اپنېب

چاي اوزاناتار اپردى.

تاجىيىاى رجب باى چوپان نى

تجار تچى اپنېب جواب بىردى

8-SABOQ

“HOYI HAVVAZ” HARFI

Hoyi havvaz



Hh (a,i(e))

“Hoyi havvaz” harfi:

- muttasil harf;
- satr chizig‘ida yoziladi;
- bir nechta harflarni ifodalashga xizmat qiladi.

Izoh: O‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan harf. Uning shakli qo‘lyozma manbalarda quyidagicha ko‘rinishlarda bo‘ladi.

“Hoyi havvaz” (he) ning yozilishi:

alohida
turganda:

so‘z oxirida:

so‘z o‘rtasida:

so‘z boshida:

Ҳ

Ҳ

Ҳ

Ҳ

Ҳ

Ҳ

Ҳ

O‘zaro qo‘shilishi:

Ҳ

Ҳ

Ҳ Ҳ Ҳ

“Hoyi havvaz”ning talaffuzda ifodalanishi:

1) asosan “h” undosh tovushni ifodalaydi. U talaffuzi jihatidan ona tilimizdagи “h” tovushiga aynan mos keladi.

چاھ
choh

بهی
behi

هرات
Hirot

2) "A" unlisini ifodalaydi.

Izoh: "Hoyi havvaz" so'z oxirida kelgandagina a(e) unlisini ifoda etadi. Bunday holda u alif bilan bir xil vazifa o'taydi.


3) So'z oxirida kelganda hozirgi tilimizdagi fors tili orqali kirib kelgan so'z(qo'shimcha)da i(e) tovushini ham ifodalaydi.

Misol: chunki چونکه, balki بلکه .

1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

"HOYI HAVVAZ" NE DEYDUR?

"Hoyi havvaz" derlar otim,
Yo'qdur mening surriyotim.
Shakldoshim yo'q, men tanho,
Harflar ichra bebah.
Mendan hech bir harf yasalmas,
O'zga harf mendan go'zalmas.
Mutlassillar-la ahilmiz,
Hech kim oramiz buzolmas.
Imkonim g'oyatda kengdur,
Vazifam "Alif"ga tengdir.
"A" bo'lib kelurman goho,
"I" bo'lib qolurman goho.
"H" bo'g'iz undoshidurman,
"Yoy"ning ham yo'l doshidurman.
Menga bering-chi, siz baho,
Bormukin men kabi daho?



To‘g‘ri topdingiz ,”Yoy”, “Ayn”,

Sizga qulluq qilayin.

So‘z boshinda ilondayin,

Vale tinglangiz qo‘rqmayin.

Halqasimondurman yakka holatda,

Yodda saqlamoqlik lozim, albatta.

So‘z o‘rtasi bo‘lsa, misli bir qushman,

Nodonlarni ko‘rsam darhol noxushman.

So‘z so‘ngida go‘yo mitti bayroqman,

Munfasil harflardin o‘zim yiroqman.

Hamrohga hamisha hamdam,

Hirotda bo‘lurman hardam.

Shu so‘zlarda kelurman bil,

“Hoyi huttiy”ni yozmagil.

Himmat hamda hoy-u havas,

Hulkar, Humoyun hamnafas.

Hodi, hidoyat, huvaydo,

Bo‘urlar men bilan paydo.

Hirotda Ko‘histonda,

Hozirdurman Hindistonda.



1. “Hoyi havvaz” qanday tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi?
2. Uni shaklan nimalarga qiyos qilish mumkin?
3. “Hoyi havvaz” ishtirok etuvchi so‘zlarni sanang.

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

So‘z ketar shu borada

Bermasdan fursatni boy

So‘z boshi va oxirida

Toping ma’nosi sovg‘a

“Hoyi havvaz” joy olmish

Ko‘tarmangiz hech g‘avg‘o

Ziyrak o‘quvchi bilmish

Yana bir nom armug‘on

O‘rtada “Dol” hamda “Yoy”

Ayting, qaysi so‘z pinhon?

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

آه	آهو	هر	بھار
رېر	راه	انھار	نھار
دھ	دھرى	دېر	ھدیه
ہڈھ	ھدایه	بڑھوڈھ	ھوڈھ بیھوڈھ
دېا	بادى		ھرات
ھدایت	پاده		پاره

داھى دهن پنھانه بھانه
بېا نھان آنه زھرە .
نھانى هرات دا تورار
اپدى . هنر هنردن اونار.
نادرە دھر دنپادور
دھ اوں دور دېدى.

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Hidoyat, baho, behi, dahr (dunyo), ohu, hunar, pinhon, anhor, bahor, bechora, pora, bahona, ota, ona, ana, yana, rahbar, dohiy.

Hodi bobo va Bahodir anhor yonidadur.

Zuhra hadya berdi.



Uyga vazifa.

1. “Hoyi havvaz” harfining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harfga tegishli qismini to‘ldiring.

“HAMROH” (yo‘ldosh) so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich. So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

о Ҷ Ҹ Ҵ | о

2-bosqich: So‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz. “**Hoyi havvaz**” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “A” qisqa unlisini tushirib qoldirib, “Mim” ning so‘z o‘rtasidagi shaklini yozamiz. “Re” ning bog‘langan shaklini olamiz. “Re” o‘zidan keyingi harfga bog‘lanmasligi uchun “Alif” ning alohidagi shaklini olamiz. “**Hoyi havvaz**” so‘z oxirida kelayotgan bo‘lsa ham uning alohidagi shaklini yozamiz. Chunki “Alif” o‘zidan keyingi harfga bog‘lanmaydi.

3-bosqich: O‘zaro bog‘lasak, natijada quyidagi birikuv yuzaga keladi:

о м ә ү + о + | + Ҷ + Ҹ + Ҵ + о

9-SABOQ

س TAYANCH BELGILI HARFLAR

Sin

س

S

Shin

ش

sh

“Sin”, “Shin” harflari:

- muttasil harflar;
- uning alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi, so‘z boshi va o‘rtasidagi shakllari satr chizig‘ida yoziladi;
- uchta nuqta bilan o‘zaro farq qiladi.

“Sin”, “Shin” harflarining yozilishi:

alohida turganda:

س

س

so‘z oxirida:

دد

so‘z o‘rtasida:

دد

so‘z boshida:

ش

ش

ش

ش

O‘zaro qo‘shilishi:

س س س

د د د

س س س

ش ش ش

ش ش ش

ش ش ش

1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

“SIN” NE DEYDUR?

Ismimni deydilar “Sin”,

Har bir o'quvchi bilsin.

Bilmaganlar ne desin?

Bilish istagan kelsin.

Harakat qiling bilishga,

Shoirlar qiyoslar “tish”ga.

Tishimiz ko'p emas uchta,

Gap “Sin” ni qanday yozishda?

Avval yozing uchta tishning aksini,

So'ngra bog'lang “Nun”ning domanasini.

Aytsam agar gapning rosmanasini,

To'ldiralarlar “Sin”ning paymonasini.

Qo'lyozmada bizni g'alat yozarlar,

Uni ko'rib kimlar ongdan ozarlar.

Hayrat ila boqib shu “Sin”mi? - derlar,

Bitta chizib, tishimni sindiralarlar.

Chiziq ostiga uch nuqta qo'yarlar,

“Pe” yanglig' bitib, betig' so'yarlar.

O'rnim bor muttasillar orasinda,

Ikkala qo'lim tanam tegrasinda.

Sozandalarning soziman,

Iskandarning sarboziman.

Sog'-u salomatda borman,

Sorbonlar kabi sayyorman.



сербаз

- 1. “Sin” harfi o'zbek tilidagi qaysi harfni ifodalaydi?
- 2. Uni shoirlar nimaga qiyos qilishgan?
- 3. Qo'lyozma shaklda u qanday yo'sinda yoziladi?



2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Topqir o‘quvchi kelsin,
So‘z boshida turar “Sin”
“Kof” berar qo‘lin shu choq,
“Yoy” harti-la apoq-chapoq

So‘ngra kelar harfi “Nun”
Umri ham bo‘lsin uzun.
Yakunda “Hoyi havvaz”
Javobni bizga yetkaz!

Izoh: Qo‘lyozma usulda “Sin” harfining ostiga uchta nuqta qo‘yish holati kuzatiladi. “Pe” bilan chalkashtirmaslik zarur. **پ**

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

سراپ	سپر	آس	آست
راست	دوست	سس	
سپاهى	دسته	استه	آبسته
ساج	سنجر	جسور	
جسارت	سربان	ہوس	
درس	سردابه	سرбاز	

درست انسان سر اسرار

داستان بوستان. پست

سراج و سرور سوت آته ساتدي.

داستان سنجر اپتدى.

راست و دوست سوزىنى اپتار اپدى . دوران بابا

درست دستپاردور .


4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Sarob, dastyor, dasturxon, rost, payvasta, Siroj, ohista, inson, do‘s, sardoba, sir, sarboz, jasorat, usta, pastda, sarbon, durust, sarhad, havas, Sarvara, soyabon, Setora, Sevinch, ust, bo‘ston, sayyora, sayr.

Sardor savat vasovun sotar edi. Sanjar esa suv sotardi.

Siroj rost so‘zni aytardi.

5. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.



“SHIN” NE DEYDUR?

“Shin” deb ot bermishlar bizga,
Ta'rifimni aytay sizga.

“Sin” ning bordur uchta tishi,
Xattot urib sindirilishi,
Uning qilmish-qidirmishi,
Aslida, menga ham yordur.

O'ylamang, “u bilan birdur”,
Ammo biroz farqim bordur.
Aytayin hozir esimda,
Uch nuqta turur ustimda.

Unutsangiz gar bilursiz,
“Sharob” ni “sarob” qilursiz.
Shahriyorning shahriston-u shahari,
Shirinlikning shahd-u shir-u shakari.

Shahanshohning shohligi-yu ham sheri,
“Shin” bilan yozilur hatto, shamshiri.
Shartdur shogirdning o'qishi,
Shoshilmay puxta bilishi.

Elda bordur shunday naql:
“Shoshilish shaytonning ishi”.



1. “Shin” harfi ona tilimizdagи qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Uni nimalarga qiyos qilish mumkin?
3. “Shin” ning qo'lyozmalardagi shakli qanday ifodalanadi?

6. Harfiy chistonni o'qing va javobini toping.

U asli keskir qurol
Asta o'ylab topib ol.
Ikki "Shin" bor o'zagida

“Mim”, “Yoy” va “Re” o‘zanida
Qanday kalom ekan bu?
Qanday anjom ekan u?

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

شراپ	شہر شرہ	شاہ	شر	شہر
باش	برداش	ایش	شیردار	شہر
آش	آشپز	شہرت	شہر	شہر
شوخ	شداد	تیش	شیرین	شیرین
شدت	شرح	بوش	شهریار	شهریار
آتش	شایش	شیرزاد	شایش	شیرزاد
شیرازی	پادشاہ	شیخ.	پادشاہ	پادشاہ

شاھسته خان شوخ و شداد
آشپزدور شهریار شہزاد .
اوچون شیرین چای و شربت
اوزандى . اجداد پادى برجييات .
بشرىت آرزوسى تىنچ و يخشى
حباىدۇر دىدى شىرىزاد آتا .

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Sharshara, bashar, oshpaz, shaddod, shiddat, tush, oshna, tashna, boshpana, shar, besh, ishchi, tosh, yosh, ishchan, sartarosh, shab, shoh, shox, shohida, hushyor, behisht, sharbat, bo‘sh, shitob, shajara, shayx, sharh, tish, nish. Shodiya sharini shishirdi. Shahodat o’sha paytda shod edi. Shuhrat sartaroshdir.



Uyga vazifa.

1. “Sin” va “Shin” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

“SHADDOD” so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich. So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ش ا د د ا د

2-bosqich: So‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz. “Shin” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “A” qisqa unlisini va qo‘sish undoshdan bittasini tushirib qoldirib, “Dol” ning “Shin”ga qo‘shilgan shaklini yozamiz. Undan keyin kelayotgan “O” va “D” harflarini ifodalovchi “Alif” va “Dol” harflarining alohidagi shaklini yozamiz. Chunki munfasil harflar yonma-yon kelganlarida bir-biri bilan bog‘lanmaydi.

3-bosqich: So‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz.

ش د ا د

← د + ا + ش + د + ا

ش ا د د ا د ←

10-SABOQ

ص TAYANCH BELGILI HARFLAR

Sod

ص

Ss

Zod

ض

Zz

“Sod”, “Zod” harflari:

- muttasil harflar;
- so‘z boshi va o‘rtasidagi shakllari satr chizig‘ida, boshqa shakllari esa satrdan pastga tushirib yoziladi;
- yozuvda bir-biridan bitta nuqta bilan farq qiladi;
- ona tilimizdagи arab tili orqali kirib kelgan so‘zlarda ishlatiladi;

“Sod” va “Zod”ning yozilishi:

alohida turganda:

ص
ض

so‘z oxirida:

ص
ض

so‘z o‘rtasida:

ص
ض

so‘z boshida:

ص
ض

O‘zaro qo‘shilishi:

ص ص ص

ض ض ض

1. Ushbu she'riy ta'rifnomani ifodali o'qing va savollarga javob bering.

“SOD” NE DEYDUR?

“Sod”degan nom menga xos,

Ko‘zga etarlar qiyos.

Arabiyyda bitarlar,

O‘zga so‘zda netarlar?

O‘rnim bordur Alifboda,

Tururman subh, saboda.

Ko‘z qismi menda o‘zak,

Domanam misli etak.

Avval “ko‘zim” shaylanur,

So‘ngra “etak” boylanur.

Domanam tushar satrdan,

“Zod”erur menga qadrdon.

To‘rt shaklga egaman,

“Zod”ga tegsa tegaman.

Muttasilmal juft qo‘llik,

Qo‘shnilarga xushfe’llik.

Sidq-u Siddiqqa sodiq,

Sabr-u Sobirga tortiq.

Sanuvbaru Sadoqat,

San’at, sun’iy, sanoat.

Sulh, solih, salohiyat.

Mensiz bo‘lmas maslahat.

Saboh-u subh, subhidam,

Mening bilan Sirot ham.

“Ixlos-xalos” - deya bejiz aytmaslar,

Alifboga qunt qilganlar qaytmaslar.



صندوق



1. “Sod” qaysi til orqali kirib kelgan so‘zlarda yoziladi va qaysi tovushni ifodalaydi?
2. “Sod” harfi mumtoz she’riyatda nimaga qiyos qilingan?
3. “Sod” ishtirokidagi so‘zlarga misollar keltira olasizmi?
4. Uning qaysi shakllari satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

“Sod”, “Be”, “Alif” birlashib,
“He” hamda “Te” sirlashib
Bir so‘z hosil qildilar,

Qay so‘zligin bildilar.
Ayta qolningiz uni –
Go‘zal bir qiz ismini.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

صاحب	اصحاب	صحبٌ
صنوبر	صبر	صَبْرٌ صبح
صبا	صبح	صَبَّاحٌ صبا صباخت
صياد	رخصت	خَاصٌ صَيَّادٌ صَيَّادٌ رخصت خاص
تصور	تصویر	صُورَةٌ تصویر تصویر تصور
خاصیت	خاص	خَاصٌ وصیت خاص خاصیت
شخصیت	شخص	خَاصَّةٌ شخص شخصیت شخص
صدا	صدا	صَدَاءٌ صدا خصوصیت
خاصیتخان	و صنوبر	خَاصِيَّةٌ خاصیتخان و صنوبر صورتنى

چизбешди. صاحбе хан اوز صحابида اوшем сирад твори آچди. سуз خصوصида

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Sobir, suvrat, tasavvur, xosiyat, sabr, xususiyat, shaxsiyat, ashob, saboh, subh, tasvir, xossa.

Sohibjon ota vasiyat etdi.

Xosiyat yaxshi shaxs va chin inson edi.

Sayd ov, sayyod ovchidur.

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“ZOD” NE DEYDUR?

“Zod” atalur ismim mening,

“Sod”ga o‘xshar jismim mening.

O‘tar qish, bahor, yoz, kuz,

“Sod” bilan bir, biz egiz.

Nuqta bois men undan sarbaland,

Menda ham domana “ko‘z”imga payvand.

Buni anglang, bo‘lmang aslo bo‘s, lavand

Bo‘s, lavandlik berur o‘quvchiga pand.

Arabcha so‘zlarda bo‘lurman doim,

Bilganlarga umr bersin xudoyim.

Zid-u tazod-u ziddiyat, zarar-u zarur, zarurat.

Zimn-u zomin, zabt-u zabit, Zarb-u zorib ham zalolat.

Men bilan bitilur albat, Yoddan chiqarmangiz faqat.





1. “Zod” harfi talaffuzi jihatidan o‘zbek tilidagi qaysi tovushga yaqin keladi?
2. Uni nimaga qiyoq qilish mumkin?
3. U asosan qaysi til orqali kirib kelgan so‘zlarda uchraydi?
4. Uning qaysi shakllari satr chizig‘i ustida yoziladi?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Bu so‘z ilg‘orlarga xos
Matonatlilarga mos.
Nihoyasadadur “dor”
Oldida uchta harf bor.
“Zod”, “Re” hamda “Be”

Bir-biriga bo‘lib tobe
Bir so‘z hosil qilishdi,
Mannunligin bilishdi.
Harf -u so‘zni qo‘shib oling
Javobini ayta qoling.

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

ضرب	ضربه	ضد	ضدیت
تضاد	ضرور		
ضروريت	ضرر	حضرت	
حاضر	حضر	يياض	رضاء
راضى	ضبا	نارضا.	
حضرت ضبا تراتادي.	او حاضر		
		ضربه بيردى.	

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Zarb, hozir, ziddizat, zarbdor, zarar, zarba, norozi, hazrat.

Rizojon bobo Xidirdan rozi edi. Ziyo ota ish buyurishsa darrov hozir edi. Hazrat zarurat uchun bayozni tayyor etdi.



Uyga vazifa.

“Sod” va “Zod” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

“ZIDDIYAT” so‘zi qanday yoziladi?

1-*bosqich*. So‘zidagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ض ى د د ى ى ا ت

2-*bosqich*: Ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish – bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab ketma-ketlikda izchil joylashtiramiz. “Zod” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “I” qisqa unli bo‘lgani uchun uni tushirib qoldiramiz. So‘zda ikkita “D” undoshi kelayotgani sababli qoidaga muvofiq ulardan faqat bittasi yoziladi. Natijada “Dol” harfining bog‘langan shaklini yozamiz. Keyin esa “Dol” o‘zidan keyingi harfga qo‘silmasligi uchun “Yoy” ning so‘z boshidagi shaklini olamiz. (“I” va “Ya” ni ifodalovchi “Yoy”ning bittasi yoziladi.) So‘z oxiridagi “Te”ni unga bog‘laymiz.

3 – *bosqich*: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ض ى د د ى ى ا ت ← ض + د + ي + ت ← ضدیت

11-SABOQ

ṭ TAYANCH BELGILI HARFLAR

To (itqi)



T

Zo (izg'i)



Z

“To” (itqi) va “Zo” (izg'i) harflari:

- muttasil harflar;
- satr chizig'i ustida yoziladi;
- bir-biridan bitta nuqta bilan farq qiladi;
- ona tilimizdagи arab tili orqali kirib kelgan so'zlarda ishlatiladi.

“To” (itqi) va “Zo” (izg'i) harflarining yozilishi:

alohida turganda:



so'z oxirida:






so'z o'rtasida:



so'z boshida:



O'zaro qo'shilishi:



1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

“TO” NE DEYDUR?


Avval sizga bo'lsin salom,
“To”deb bermishlar bizga nom.
Ba'zilar “Itqi” ham deyar,
Kimlar qay birini suyar.

Ikki otim ham asli bir,
Qay birin qo'llang baribir.
Til orqa “T” anglaturman,
“Zo” ni o'zim teng tuturman.

Mening shaklim ham g'aroyib,
Ko'rganlar deydi: “ajoyib”!
Ta'rifim aytayin qilingiz toqat,
Arabiylar so'zlarda bo'lurman faqat.

Diqqat ila tinglang “To” ning so'zini,
Avvalo, chizingiz “Sod” ning “ko'zi”ni.
So'ng tushiring unga “Alif” o'zini,
Chappa qilsin Alloh balo yuzini.

Aslimdurur muttasillar urug'i,
Xattot xati xatosiz “To” dovrug'i.
Menga qarab endi yuzni buring-chi,
Tovus, to'tiqushga mengzab ko'ring-chi.
Tib-u tabobat, tohir-u tahorat,
Toat-u itoat, tariq-u tariqat.



- 1. “To”(Itqi) o'zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
- 2. U she'riyatda nimaga o'xshatiladi?
- 3. “To” talaffuzi jihatidan qaysi tilga xos?
- 4. Uning satr chizig'iga nisbatan tutgan o'rni qanday?



2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Iqbol unga ma’nodosh
Yaqin misli ko‘z-u qosh.
“Itqi” kelar ilk, bosh bo‘lib
“Alif” unga yonbosh bo‘lib.
“Lom”ga bu holat yoqmas

Ularga qayrilib boqmas.
Yoniga chorlar “Ayn”ni
Do’stlik bobida tayinni.
So‘z oxiridadir “Ayn”
Toping, yo‘qsa men aytayin.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

خاطره طراح طرح طبیب طب طبابت طباخ طیر طباط طب طیاره خط طیاره طهارت طاهره طاهر طرز طاس طبیات خطبه طور طراح اوی طرحبى شو طرزدا چىزدى. خطاط خطیب نى خطپىن تىپدى. ضابط خطاب ایتپىب بىرچە نى ضبط اپتدى.

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Xattot, dastxat, tayr, tabobat, xutba, xatoba (diniy voizlik), tarh, zabit, tahorat, xotira.

Tovus tayrdur. Tabib davo beradi. Tohir xat bitib uni jo‘natdi.

“Tарh” (loyiha) so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich: So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ح ر ا ط

2-bosqich: So‘zdagi harflarni kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab izchil joylashtiramiz. “To” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. Undan keyingi harf “A” qisqa unli bo‘lgani uchun tushirib qoldirramiz. “Re” o‘zidan oldingi harfga qo‘l berishini inobatga olib bog‘langan shaklini yozamiz. So‘z oxirida kelayotgan “Hoyi huttiy” ning alohidagi shaklini yozamiz. Chunki “Re” o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaydi.

3-bosqich: Ularni o‘zaro bog‘laymiz. Natijada quyidagicha bog‘lanish yuzaga keladi:

ط ر ح ← ح + ر + ط ← ط ر ح

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“ZO” NE DEYDUR?

Menga ikki nom bermishlar,


“Zo” hamda “Izg‘i”demishlar.

“To”ga o‘xshar deb suyurlar,

Nuqtalikdur deb qo‘yurlar.

O‘xhashlik ko‘p “Itqi” bilan “Izg‘i”da,

Ikkalasi turur satr chizig‘ida.



Qomatimiz ham “Alif”dek sarbaland,
 Tikka turgan ketmon bizlarga monand.
 “Itqi” erur jonajonim,
 Abjadda to‘qqiz yuz sonim.
 Arabiy so‘zlarga xosman,
 Toping qay so‘zga asosman:
 Zohir-u zuhr-u zuhurot,
 Zolim-u zulm-u zulumot,
 Zarif-u zarf-u zarofat,
 Ta’zim-u, a’zam, azamat.



1. “Zo” (izg‘i) ona tilimizdagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Uning satr chizig‘idagi o‘rni qanday?
3. U ishtirokidagi so‘zlardan misollar ayta olasizmi?
4. Uni she’riyatda nimaga o‘xshatishgan?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Paydo bo‘lishdir ma’nosi	“Re” turardi so‘ngida
Namoyonlik muddaosi.	“Hoyi havvaz” ham yonida,
Oxirgi harfdan boshlaymiz	“Alif” bilan “Izg‘i”kelar,
Har harfga nazar tashlaymiz.	Xo‘s, qay ism paydo bo‘lar?

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

ضابط

ظهور

ظاهر

ظهرا

ناظر

نظر

نظره

ضبط

ناظارت انتظار.

ضابط ضبط ایتو چیدور

ظاهرجان و ناظرجان بینظیر

ناظارتچیدیر . نظر ایشان جوده

зор بازوچى و نظرباتچیدير

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Nazariy, zubit, zohir, nazorat, intizor, benazir, nozir.

Zahro nazariyotchi edi.

Zuhra suvratni bir onda zuhur etdi.



Uyga vazifa.

“To” va “Zo” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

12-SABOQ

ت Tayanch Belgili harflar

Ayn

ع

,
(a, i, u, o)

G‘ayn

غ

G‘

“Ayn”, “G‘ayn” harflari:

- muttasil harflar;
- uning alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi, so‘z boshi va o‘rtasidagi shakllari satr chizig‘ida yoziladi;
- bir-biridan bitta nuqta bilan farq qiladi.

“Ayn”, “G‘ayn” harflarining yozilishi:

alohida turganda:

ع
غ

so‘z oxirida:

خ

so‘z o‘rtasida:

خ

so‘z boshida:

غ

O‘zaro qo‘shilishi:

ع ع
غ غ

خ خ
غ خ

ع ع
غ غ

“AYN” HARFI

“Ayn” asosan o‘zbek tilidagi ayirish (tutuq) belgisini ifodalaydi.

“Ayn” arabcha portlovchi bo‘g‘iz tovushi bo‘lib u hozirgi tilimizdagi bir necha tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi.

- 1) So‘z boshida kelganda, arabchadan tilimizga o‘zlashgan so‘zlarning ayrimlarida “a” tovushi sifatida talaffuz qilinadi va yoziladi. (Izoh: aslida, “Ayn” qisqa unlilarni ifodalovchi harakat belgilari bilan o‘zgarib turadi)

arab - عَجِيبٌ ajib - عَجِيبٌ .

- 2) Arab tilidan o‘zlashgan ba’zi bir so‘zlarda “i” tovushini anglatib keladi (kasra bilan)

ibrat - عَبْرَتٌ iyd (hayit) - عَبْدٌ .

- 3) Arab tili orqali kirib kelgan ayrim so‘zlarda u(o’)tovushlarini ifodalab keladi

uzr - عَذْرٌ .

- 4) Ba’zi so‘zlarda “o” tovushini ifodalaydi. Buning uchun yozuvda “Ayn”ga “Alif” qo‘shib yozilishi shart (ع)

odat - عَادَتْ ojiz - عَاجِزٌ .

- 5) Hozirgi o‘zbek tilidagi (‘) tutuq belgisini ifodalab keladi

e’tiroz - اُتْرَاضٌ ta’na - طَعْنَةٌ .

Izoh: ba’zi so‘zlarda “Ayn” so‘z boshida va oxirida o‘z xususiyatlarini yo‘qotgan

عصا - hassa (aso) عَبْدٌ - hayit (iyd)

دفع - daf (‘) نفع - naf (‘).

Mazkur so‘zlar asrlar davomida o‘z talaffuz xususiyatini yo‘qotib, o‘zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashgan.

“Ayn” so‘z ichida yopiq bo‘g‘indan keyin kelsa, keyingi bo‘g‘inni oldingisidan ajratib turadi. Bu xususiyat hozirgi yozuvimizda tutuq belgisi (apostrof) orqali ifodalanadi

بدعت - بـدـعـت sun'iy. صـنـعـي

O'zbek tilidagi arab tili orqali kirib kelgan ayrim so'zlarda "Ayn" talaffuz qilinmaydi, yozilmaydi ham. Ammo bu so'zlar eski o'zbek alifbosida bitiladigan bo'lsa, "Ayn" harfi yozilishi shart

تابع - تابع tobe(') اختراع - اخـتـرـاع ixtiro(').

Izoh: ilk o'rghanuvchilar "Ayn"ning alohidagi shaklini "Hoyi huttiy"ning so'z oxiridagi shakli bilan chalkashtirib yuborishadi. Ularni farqlang.

ع ع

1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

"AYN" NE DEYDUR?



Shaklim ko'rib o'tirmangiz bilmayin,
Otimni so'rsangiz aytayin "Ayn".

O'ng-u so'ldan kelganlarda qo'limiz,
Yozuvda ham o'ziga xos yo'limiz.
So'rasalar shaklimiz ikki bo'lak;
Yarim halqa, yarmimiz misli etak.

Yarim halqa joyi satr ustinda,
Etak qismim esa satr ostinda.
Ba'zi o'quvchilar ko'zga ilmaslar,
"Ayn" hamda "He"ning farqin bilmaslar.

"Hoyi huttiy" bilan shaklimiz yaqin,
Lekin undan meni yaxshi farqlagin.
Domanamiz xatda deyarli bir xil,
Ust qismimda tafovut bor buni bil.

Unda qirradorlik, menda doira,
Yozganingda shunga qilgin rioya.
Sakkizinchı tayanch belgi ilkiman,
Ham harfman, ham ayirish belgiman.

“A” bilan “I” ifodasida hissam,
“U” bilan “O” ifodasida qissam.

So‘zlarimni quloq berib tinglagin,
Menga “Alif”, “Vov”-u, “Yoy” ni tenglagin.
Endi esa qator so‘zlar bitayin,
Toping, qanday vazifadadur “Ayn”?

Ajz-u ojiz, adl-u odil,
Arz-u oraz, aql-u oqil,
Amal, omil, ilm-u olim,
Umar, Usmon, jam’i olam.

A’lochidur Abduvali,
Men bilan boshlanur Ali.

Atr-u attor, ham muattar,
Urf-u orif ham maorif.
Ishq-u oshiq hamda ma’shuq,
Abdu, Obid ham ibodat.
Aysh-u ishrat, umr, imorat,
Iyd, aso bizdan iborat.

Tayyor erurman bir damda,
Ham Arab-u, ham Ajamda.
Aslim turur arabiyya,
Xizmatim bor ham turkiyda.



علیشیر



1. “Ayn” harfi qanday tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi?
2. Uni nimalarga qiyoq qilish mumkin?
3. “Ayn” harfi qo‘lyozma manbalarda qaysi harfga o‘xshab ketadi?
4. “Ayn” harfi qaysi so‘zlarda ishtirok etadi?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Umr so‘zin o‘zagidan,
U “Ayn” ning bezagidan.
Bunyodkorlar himmatidan,
Quruvchilar xizmatidan.
Zohir bo‘lg‘usi bu kalom
Bilsin uni xos-u avom.
So‘z boshida turar “Ayn”

O‘tirmang tag‘in bilmayin.
Undan keyin kelar “Mim”
To‘g‘ri toparsiz balkim.
Qurdosh bo‘ldi “Alif” ham
Yuz o‘girdi “Re” shul dam.
Yakunida keldi “Te”
Qay so‘z bo‘ldi mujassam.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

تَعْبُر	عَرْبَسْتَان	عَرْب
عَجَابِيَات	عَجَبٌ	عَجَبٌ
تَعْجِبٌ	عَبَارَة	عَبَارَة
عَدْدٌ وَعِدَّة	رَعْنَا	عَرْشٌ
عَبْدٌ وَعِبْدٌ	عَصْرٌ	دَعْوَةٌ
عَابِدٌ	عَنْاِيَةٌ	عَبَادَةٌ
عَاجِزٌ	عَاجِزٌ	عَادَةٌ
عَارٌ	سَعَادَةٌ	سَعْدٌ

عرض	طعنہ	عارضت
صنعت	عربہ	شریعت
عداوت	عدو	صناعت
حضرت	شاعر	عشرت
اوئى	پazardى	نواى شعر
دېب	سلطانى	شعریت
اوزى	عشوربای	اتاشادى
بىردى.	پازىب	عريضه
عطر	آتا عطار	عنایت
و صابون ساتار اپدى.		

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.



Soat, san’at, e’zoz, itoat, asab, tab’, ojiz, iste’dod, va’da, atr. Sur’atjon surat chizadi.

Shoir shuuri she’riyatga asosdir.

Ra’noxon Arabiston diyori sari boradi.

Obid toat - ibodat etuvchidur.

5. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.



“G‘AYN” NE DEYDUR?



Mening ismim “G‘ayn”derman,
Bilishingiz tayin derman,
Qo‘lyozmada chalkashtirib,
So‘z o‘rta “Fe”ga o‘xshatib.
Sabab – noaniq bitarlar,
So‘z so‘ngida “Xe” atarlar.
Siz bulardan bo‘ling ogoh,
Xato qilib qo‘ymang nogoh.
“Ayn” birlan ko‘kaldoshman,
“Fe” harfi bilan yondoshman.
Ammo farqim bor nuqtada,
U ham bo‘lsa-da bittada.
Boshim uzra bir kavkabi,
Jism-u qismim “Ayn” kabi.
Ikki qo‘llik, muttasilmiz,
Bir-birimizga ahilmiz.
G‘arib yig‘layur g‘urbatda,
G‘aniy aysh-u farog‘atda.
G‘aflat bandasidur g‘ofil,
G‘animat, ilmga shoshil.



1. “G‘ayn” harfi o‘zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Uni nimalarga qiyos qilish mumkin?
3. “G‘ayn” ni qo‘lyozma kitoblarda qaysi harf bilan chalkashtirib o‘qishadi?
4. Uning ishtirokidagi so‘zlardan misollar topa olasizmi?

Izoh: hozirda “Q” harfi bilan yoziladigan so‘zlar eski o‘zbek tilida “G” tarzida talaffuz qilingan va yozilgan. Bu “Q” bilan tugovchi so‘zlarda ko‘zga tashlanadi.

Misol: achchiq - اچیق achchig‘ - اچیغ‘.

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Ko‘p dostonlar o‘qigan,
Ham ertaklar to‘qigan.
O‘quvchi albat bilar,
Dastavval, “G‘ayn” kelar.

Undan so‘ng “Yoy” hamda “Re”
Jam bo‘lishibon bari.
Talpindilar “Ko‘k” tomon
Qay jonzot oti pinhon?

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

بغیر	باغبان	تاغ	غريب	غرب
غیرت	اوغرى	توغرى	تىغ	
زاغاره	غزات	غاز	تاغه	جان
آغىز	راغب	اغنیا	پاغ	ساغ
رغبت	آغىر	غواص		

غښنجي غښت اپتادور . غنى
چاځير اېچدي . غیرات اوچار
آتدور . غيرت آټا سخى انسان ايردى.
غاز تاغ ساري اوچوبدور . نادر
باغبان بغداد باغدا سير اپتادور .
غنى جان نورت غازنى توپیب
تدردا اوئنا زاغارا نان پاپدی .
غزاوات دېنى او رو شدور .
غیرت چان چاځير شر ابدور دېدى .
تاغ دا غار اېچي دا اژدر بار .

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

G‘oz, bag‘ir, g‘addor, g‘or, tog‘, beg‘ubor, g‘ayrat, g‘oziy, bog‘bon, tig‘.

Rog‘ib Bog‘ot sari yurdi. G‘ani bobo Bag‘dod boradur.

G‘arib har on g‘urbatda. G‘izo ovqatdur.



Uyga vazifa.

“Ayn” va “G‘ayn” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

“G‘URABO” (g‘ariblar) so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich: So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

أ ب ر و غ

2-bosqich: Ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz. “G‘ayn” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “U” qisqa unlisini tushirib qoldirib navbatdagi harfga o‘tamiz. “Re” ning bog‘langan shaklini yozamiz. “Re” o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaydi. Shuning uchun keyin kelayotgan “Be” ning so‘z boshidagi shaklini olib, “Alif” bilan bog‘laymiz.

3-bosqich: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ب ر و غ ب ر + غ + ب ل

13-SABOQ

ۋ TAYANCH BELGILI HARFLAR

Fe

ف

F

Qof

ق

Q

“Fe” va “Qof” harflari:

- muttasil harflar;
- “Fe” harfi satr chizig‘idan tushmaydi. “Qof” harfining alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi;
- bir-biridan shakli va ustiga qo‘yiladigan nuqtalarning soni bilan farq qiladi.

“Fe” va “Qof” harflarining yozilishi:

alohida turganda:

ف

ق

so‘z oxirida:

ف

ق

so‘z o‘rtasida:

ف

ق

so‘z boshida:

ف

ق

O‘zaro qo‘shilishi:

ف ف ف

ق ق ق

ف ف ف

ق ق ق

ف ف ف

ق ق ق

1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

"FE" NE DEYDUR?

"Fe" harfini ko'rganmisiz?
Holi ne, deb so'rganmisiz?
O'shal menman ikki qo'lllik,
Muttasilman to'rt shakllik.

Aytay sizga shudir holim,
Boshim uzra bor bir xolim.

Satr ustinda tururman,
Qo'shnilaraga qo'l berurman.

Fisq-u fasod fosiqdandur,
Fazl-u kamol fozildandur,
Farhod, Fotima faxriman,
"Qof"dan birmuncha farqliman.

Siz farqlang meni "G'ayn"dan,
Hamda qardoshim "Ayn"dan.

So'zning o'rtasinda ular,
Uchburchak bo'lib yozilar.

Men esa dumaloqroqman,
Xushfe'llarga o'rtoqman.

Har narsaning bordir narxi,
"Fe"ning bordir "Qof"dan farqi.



- 1. "Fe" harfi o'zbek tilidagi qaysi tovushni ifodalaydi?
- 2. Uning so'z o'rtasidagi shakli bilan "G'ayn"ning xuddi shu o'rindagi shakli orasida qanday farqi bor?
- 3. "Fe"ni nimalarga qiyos qilish mumkin?
- 4. "Fe" va "Qof" orasidagi ikkita farqni bilasizmi?



2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Asli ayriliq demakdir
Hajr g‘amini yemakdir.
Ayro tushgan sevar yordan
Hamda tug‘ilgan diyordan
Buning ma’nosin his etar,

So‘z boshida “Fe”ni bitar
“Re” kelib unga qo‘l tutar.
“Qof”, “Te” uzoqroqqa yitar
Bu so‘z ma’nosidir hijron
Bormi, bironta topag‘on?

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

فراخت	آفت	افت	تفت	فتنه
صاف	صفا	جفا	فراش	صنف
صف	تصنف			صنف
ضعيفه	ضعف	ضعف	صرف	صرف آبي
فریاد	اطراف			طرف
آفرین	فغان	افغان	فنا	
فریده	جفت	فانوس	دفتر	
فرد	فرهاد	فانی		نفع
فتح	افتخار	فخر	فتح	هفتنه

فاتح فرحاں آفتاب شفاف
 شفا وفا عفت فردوس
 او نی فاش اپنڈی . فتاح شاہ
 فرانسہ نی فتح اپنڈی . آفتاب
 ضیاسی چھار اطرافنی پارو تار
 اپدی . ظفر جان صفر آبی
 اور تاسیدا سفر ساری بوز
 بوردی . افتخار آغا فدا یابی و
 شیدا یابی انسان دیر .

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Iftitoh (ochilish), nafrat, fursat, forig‘, sof, daftar,
 zarf, zarif, zarofat, fan, dafn, farzand, ofat, sharaf,

Sharofat atrofni yoritish uchun fonusni topdi.

Ashraf ota Farog‘at uchun uch juft daftarni uzatdi.

Sharofjon tabiiy fan sohibidur.

5. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

“QOF”NE DEYDUR?



So'rsangiz bizni ham nasl,
Bilib qo'yinglar, muttasil.

Bizda bordur shakl to'rt xil,
Satrdan tusharmiz bilgil.
Barcha shaklimiz tushmasdur,
Ikki shaklga bu mosdur.

So'z oxiri yakka holat,
Satrdan tushadur albat.

“Vov” kabidur o'zak qismim,
“Nun” kabidur etak qismim.

“Fe”dan farqim bor nuqtada,
Chuqur yarim doirada.

Ikki nuqta boshimdadur,
Qilich, qalqon qoshimdadur.

Tartibim yigirma to'rtdu,
Oltin beshik ona yurtdur.


Qadr-u qiymatga qalqonman,
Qurb-u qurbatga qurbanman.

Qodir, qudratga qo'rg'onman,
Qahr-u qahhorga qironman.

Qing'ir, qallobga qopqonman,
Qardoshlarga qadronman.

O'qimoq shogirdga farzdur,
O'rgatmoq ustodga qarzdur.

قىلىخ



قلقان



1. “Qof” ona tilimizdagı qaysi tovushni ifodalaydi?
2. “Qof”ning “Fe”dan farqli ikki jihatini bilasizmi?
3. “Qof” ishtirokidagi qanday so‘zlarni bilasiz?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

“Qof”, “Alif” bir qirg‘oqda
To‘rtta harf ikkinchi yoqda
Bog‘langanlar bo‘lib mute

“Be”, “Lom”, “Yoy” hamda “Te”
Birlashsa gar ikki sohil
Qay so‘z paydo bo‘lar, bil.

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

قار	قاچاق	قاتيق	قاپقاق	قاپقان
قدرت	قادر	قادر	قادر	قادر
عقد	اقتدار	قان	فرینداش	اقرار
حق	فرار	برقرار	فیزیق	حقایق
حقیر	حقيقة	حقيقة	حقيقة	حقیر
حقارب	فقر	تھقیر	فقر	حقارب
فهار	قهار	قدر	قيراق	قهار
قند	قردان	قردان	بيراق	بيراق
قىروف	قروف	تىزقىد	تىزقىد	نقد

فایچی. قرداش آغا قازیقنى
قاقدى. قاربaba قار آستىدا يارقىن
قار او سىپدادور. چىن عاشق
عشق او تىدا يانوچىدور. قوياش
شرقىن چىقىب غربدا باتادور.
صادق او قېتغۇچى غافر ايسە
او قېغۇچىدور. قىسر قىز
قاواغىدىن قار ياغاردى.
او قىتىق خفه جەلدار اپدى.
قادراًنا قىرداش انسان اپدى.
قدرت قىرشى شهرى سارى بوردى.
قويان قدوق دن قىر غاقغە چىقىدی.

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Aqrabo, qiroat, Qur’on, qabr, toqat, ovqat, oqibat, fuqaro, qoshiq, qo‘sishiq, aqrab, qabohat, qanoat, qodir, qunduz, qaroq, charog‘, qad, pichoq, quchoq, oqibat, yong‘oq, shafaq, g‘arq, qazo, taqozo, firoq, farq, furqat. Qayiqchining qayig‘i qirg‘oqqa chiqdi. Qurbon og‘a to‘qqiz qadoq qand sotdi. Osmonda chaqin chaqdi. Qahraton qishda quyuq qor yog‘ardi.



Uyga vazifa.

“Fe” va “Qof” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

“QADRDON” so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich. So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ق ا د ر د آ ن

2-bosqich: Ularni so‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish – bog‘lanmasligiga, yozilish yoki tushib qolishiga qarab ketma-ketlikda izchil joylashtiramiz. “Qof” ning so‘z boshidagi shaklini olamiz. “A” qisqa unli bo‘lgani uchun tushirib qoldiriladi. “Dol” harfini bog‘langan shaklini yozamiz. Ulardan keyin kelayotgan “Re”, “Dol”, “Alif” ning alohidagi shakli yoziladi, sababi munfasil harflar yondosh kelganda o‘zaro bog‘lanmaydi. “Nun” harfi so‘z so‘ngida kelayotgan bo‘lsa ham uning so‘z oxiridagi shaklini yoza olmaymiz. Chunki undan oldingi munfasil harf qo‘l bermayapti. Demak, uning alohidagi shakli yoziladi.

3-bosqich: Harflarni o‘zaro jamlaymiz. Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ق ا د ر د آ ن ← ق + د + ر + د + ا + ن ← ق دردان

14-SABOQ

ك TAYANCH BELGILI HARFLAR

Kof



K

Gof



G

“Kof” va “Gof” harflari:

- muttasil harflar;
- satr chizig‘idan tepada yoziladi;
- bir-biridan ustidagi chiziq (aslida uchta nuqta bo‘lgan, keyinchalik parallel chiziq qilingan) bilan farqlanadi;
- qo‘lyozma manbalarda “Kof” harfi “Gof”ning ham vazifasini bajargan.

“Kof” va “Gof”ning yozilishi:

alohida turganda:



so‘z oxirida:





so‘z o‘rtasida:



so‘z boshida:



O‘zaro qo‘shilishi:



1. Ushbu she'riy ta'rifni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

کروان



“KOF” NE DEYDUR?

“Kof”deb nom berdilar bizga,

Kamtar kalom aytay sizga.

Inim “Gof” bilan ikkimiz,

O'ninchi tayanch belgimiz.

Muttasillar-la inoqmiz,

Munfasillardan yiroqmiz.

To'rt shaklimiz mavjud erur,

Satr ustinda tayyor turur.

Kamtar kamolot kasb etar,

Manman zavolotga ketar.

Komim erur komronlik,

Karvon uzra sorbonlik.

Katta bo'lsam deb o'yladim,


Uch “Alif”ni qo'sh joyladim.

Sorbonlik nasib etmadi,

Kosib kibar kasb etmadi.

So'ng kamtarlikni ko'rk bildim.

Kibr-u takabbur tark qildim.





1. “Kof” harfi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Uning shaklini nimalarga o‘xshatish mumkin?
3. “Kof” ishtirokidagi so‘zlardan misollar keltira olasizmi?

2. Harfiy chistonne o‘qing va javobini toping.

Mukammallik belgisi u
Kamolotning ulgisi u.
U inson ta’rifida,
U bashar tavsifida.

“Kof”, “Alif” bir tomonda
“Mim”, “Lom” ikkinchi yonda
Kelib qo‘silgan “jon”da
Toping endi shu onda.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

کفت	فکر	کار	کر
کاتб	اکبر	كتاب	کتب
کاسب	کتاب	کاسه	کتاب
ذکر	ایشان	ایچکی	ایضا
کروانباشی	ذاکر	ذکیره	ذکیره
كتابت	ترکستان	چيريل	چيريل

کتاب او قیشنى کسب اپتیش انسان
ادرائى ذهن قىت و اراده
سېدادور. ذاكرجان تون و كون
خدا پادىنى ذكر اپتیب فگر و شکر
اپتیشنى خوش كوراردى. چاكر
خطادىن تا خراسان سارى چىرىك
قوشىن تارتىشنى اپستادى. تىرىك
انسان اپرل اوچون كوراشادى.
احدجان اكه دنيانى ترك اپتیب
كىتدى. اكברجان اكه هر كونى
کباب يېشىرىشنى يخشى كورادى.

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Kabutar, etik, tekin, sekin, aka-uka, kotib, kitobat, terak, bukri, kosa, askar, kerak, kasofat, harakat, barakat, katta, aksariyat, kasaba, sokin, kent, chirkin, danak, shukrona, takror, ark, tark, kor, kozib, kazzob, kent, kashshof, Ka’ba, Kabir, Kubro, bitik.

Erkaboy kitob o‘qiydi. Erkin ekin ekibdur.

Davron aka shahardan chiqib ketdi. Akbar esa ukasini kutib o‘tiribdur.

“Karam” so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich: So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:


م | ر | ا | ك

2-bosqich: So‘zda kelish o‘rniga, bog‘lanish-bog‘lanmasligiga qarab ketma-ket joylashtiramiz. “Kof” ning so‘z boshidiagi shaklini, so‘ngra “Re”ning unga bog‘langan shaklini yozamiz. So‘zdagi ikkita “A” unlisi tushirib qoldiriladi. “Re” harfi o‘zidan keyin kelgan harfga bo‘glanmasligi uchun “Mim” ning alohidagi shaklini yozamiz

3-bosqich: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

ک ر م ← ک + ر + م ← ک ا ر ا م

5. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.



“GOF” NE DEYDUR?

Bizga “Gof”deb nom berdilar,
“Kof”ga ko‘kaldosh dedilar.

Forsiy harf-to‘rtovlon edik,
Alifboga keyin kirdik.

Qaysi deb so‘rsang aytarmen,
“Pe”, “Chim”, “Je”lar hamda menman.

To‘rtovlon ham uch nuqtalik,
Farqimiz yo‘qdur unchalik.

Oldin uch nuqta “Gof” ga qo‘yilg‘on,
Ondin so‘ngra bitta chiziq qiling‘on.

Oqibatda ikki chiziq muqobil,
Aytayin kamina nelarga qobil.

Sen bularni yaxshi o‘qib, puxta bil,
Asli naslimdurur angla muttasil.


Bordur mening ikki do‘stim,
“Kof”ga o‘xhash bo‘y-u bastim.

Satrda to‘rt ko‘rinishim,
Parvozga shaydur turishim.

Gulgun gulobda borman,
Goh gulxan, goh gulnorman.

Gul ilmdir, men bir gulzor,
Siz gulchin, menchi, giriftor.

Charxi gardundur bir guzar,
Derlar: “O‘qiganlar o‘zar”.



- 1. “Gof” ona tilimizdagи qaysi tovushni ifodalaydi?
- 2. U “Kof”dan nimasi bilan farqlanadi?
- 3. Eski o‘zbek alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflar nechta?
Ularni sanang.
- 4. “Gof” ishtirokidagi so‘zlarga misollar keltira olasizmi?



2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Zimmasida turarmish,
Ham bo‘yniga olarmish,
Shu so‘zlarga ma’nodosh
Qaysi so‘z-u harf yondosh.
“Gof” “Re”ga qo‘lin berdi
“Dol” ham kelib ko‘krak kerdi.

Ne bo‘ldi, axir, yakun?
Nihoyada turar “Nun”
Topganning umri uzun,
Bo‘lsin qaddi ham mavzun,
Rizqi ham bo‘lsin butun.

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni lotin alifbosiga o‘giring.

گردا^ب

گردن

جنگ

جنگپى

گرنگ

برگ

چنگ

گراو

گنج

اگر

دفنه

خرینه

گنجینه

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Girdob, gajak, gardish, tarang, gashtak, gird,
giriftor, teng, eng, tang, garang, rangin, gugurt.

O‘qigan o‘zar. Gardan bo‘yin deganidur.

Gadoning dushmani gadodur. U o‘z jihozini garovga qo‘ygandi.

Digar digar, jigar jigar ast degani begona begona, o‘zingniki o‘zingnikidir degani.

Gapdon yigit kengroq guzardan o‘tdi.



Uyga vazifa.

1. “Kof” va “Gof” harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini to‘rt qatordan yozing.
2. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to‘ldiring.

5. Mazkur matnni o'qing va so'zlab bering.

گنجه بیاک نینگ گنجى

گنجه بیاک سوزگا چىچن گپدان
يگىت ايردى . گپ بابىدا گراو
او يناسانگىز يوتقازىب قويسانگىز
كىراك . گردىدا براوگا بيرادىگان
باسىب قويغان گنجىنه ياكى يرگا
قازىب بيكىنگان دفىنه سى يوق .
او نينگ بار يوغى او زگادن فرقى
گپگا او ستا ايكاني، او نگا دوپى
كىگىز يشيدور .

15-SABOQ

“LOM” va “MIM” HARFLARI

Lom



L

Mim



M

“Lom”, “Mim” harflari:

- muttasil harflar;
- alohida va so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushadi;
- bir-biridan shakli va ifodalarydigan tovushi bilan farq qiladi.

“Lom” va “Mim” ning yozilishi:

alohida turganda:

ل

so‘z oxirida:

ل

so‘z o‘rtasida:

ل

so‘z boshida:

ل

م

م

م

م

O‘zaro qo‘shilishi:

ل

ل ل

ل ل ل

م

م م م

م م م


1. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“LOM” NE DEYDUR?

Mandan ham eshititing bir necha kalom,
Muttasil harf tururman ismim esa “lom”.

Shakl-u shamoyilim go‘yo qarmoqdek,
Yo bukilgan ul ko‘rsatkich barmoqdek.

Oql bo‘lsang, aql bulog‘idan ich,
Ba’zilar aytadur: “Lom”misli cho‘mich.



“Lom”ning qanday yozilishin bilib ol!
Men ayturman qulog‘ingga ilib ol.


Satr uzra yozgaysen avval “Alif”ni,
Sifatlarin bilgin har bitta harfni.

So‘ngra qo‘shtin “Nun”ning etak qismini,
Qarangki, chizibsiz “Lom”ning jismini.

El-u ulus salomatdur botirdan,
“Nun”ga monand qismim tushar satrdan.

Bol-u iqbol, bolada,
La’li lab-u lolada.

O‘tloq, yaylov, dalada
Men borman ulug‘ qal’ada.



1. “Lom” harfi ona tilimizdagи qaysi tovushni ifodalaydi?
2. “Lom” harfini nimalarga qiyos qilish mumkin?
3. U ishtirot etgan so‘zlarga misollar keltira olasizmi?
4. “Lom-mim demadi” iborasini qanday izohlaysiz?

2. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Go‘zallikda bebaho,
Bilag‘on, misli daho.
Ko‘rsangiz gar rasmini,
Aytarsiz darhol ismini.
“Lom-alif” kelar chirmashib

“Be”, “Re” ham tog‘lardan oshib.
Endi “Xon”ni unga qo‘shib,
O‘qib ko‘ring-chi qaynab jo‘shib.
Qanday ism bo‘lar paydo,
Dilbarlikda huvaydo?

3. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

لامې	لېڭىن	لېڭىن	لامې
دلاور	باليچى	باليچى	دلاور
بلبل	بىلاك	بىلاك	بلبل
اپلىچى	طلاد	طلاد	آلتۇن
بىلچىق	فعال	فعال	فعالىت
لەگىندردار	لب	لب	طلابە
لېلى	گەچىن	گەچىن	دلربا
لامە	پىمالە	پىمالە	لامە

دلبر	لذیذ	جهالت
خال.	داخل	دخلدار
خپال سور گانچہ	خالدار	خالدار
اوتفازار دی.		نهال
پانگان	آتشیدا	عشق
دلپداگی		قیس نینگ
قلپداگی	ناله	آه و
اضطرابلار	لپلی نینگ	
وصالی اوچون ایدی.	آنا	
وطن نی سیویش و اونی		

ارداقلاش و جданى برج.
 آنه يورت تقديرىگا
 دخدارلىك توپغوسىگا
 صادقلارىك اصل جسار تىدىر.

4. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Latofat, lazzat, sulk, soliq, baliq, tilshunos, olim, ilm, bilim, aql, oqil, bol, iqbol, istiqbol, xalq, xaloyiq, olchoq, lison, lutf, lochin, libos.

Talabalar eski o‘zbek alifbosini o‘rganishga ixlos, e’tiqod va qiziqish bilan kirishdilar. Ushbu yozuv ko‘p asrlik tarixning kalitidir. A’lo baho bilan yutuq va g‘alabaga erishish zarur. Bu oliy niyatlar sari intilish xayrli ishdir. Uchinchi Uyg‘onish davrining bunyodkorlari ana shunday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

“LAFZ” so‘zi qanday yoziladi?

1-bosqich: So‘zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

ل ا ف ظ

2-bosqich: So‘zda kelish o ‘rniga, bog‘lanish - bog‘lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz. “Lom” ning so‘z boshidagi shaklini yozamiz. “A” qisqa unlisini tushirib qoldiramiz. “Fe” ning so‘z o‘rtasidagi shaklini yozamiz. “Zo” ning so‘z oxiridagi shaklini yozib, o‘zaro bog‘laymiz.


3-bosqich: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

لفظ ل + ف + ظ ل ا ف ظ

5. Ushbu she'riy ta'rifni o'qing va savollarga javob bering.

"MIM" NE DEYDUR?

Aytar bo'lsam ismim "Mim",
Bilmasangiz yo'q tinchim.
Tayanch shakl emasman,
Nuqta lozim demasman.
Maktab-u ma'rifat ila ma'rufman,
Mudarris, muallim ila masrurman.
Meni o'zga harflardan,
Farqlashingiz tuzukdir.
Ko'rganlar derlar, "go'yo",
Ip bog'langan uzukdir".
Mehrim ustun ulug' xalqqa
O'zak qismim misli halqa.
Qilqalam xattotlar ajab eplarlar,
Dumaloq qismimga siyoh chaplarlar.
Tashbeh-pista dahan, "Mim" esa ismim,
Dumaloq ham dumdan iborat jismim.
Yoshlikdagi dumlik varrak esdadur,
Dum qismim satrdan doim pastdadur.



1. "Mim" harfi ona tilimizdagi qaysi tovushni ifodalaydi?
2. Uni nimalarga o'xshatish mumkin?
3. "Mim" harfining alifbodagi boshqa harflarga o'xshamagan jihatlari nimalardan iborat?
4. "Mim" ishtirok etgan maqollardan topib, eski o'zbek alifbosida yoza olasizmi?

6. Harfiy chistonni o‘qing va javobini toping.

Qimmatbaho taqinchoq,
Qizlar ismiga munchoq.
Uni xush ko‘rishadi
Ismini qo‘yishadi.
Avvalida kelar “Mim”
“Re” topar asta qo‘nim.

“Jim” - u “Alif” hamda “Nun”
Bo‘lib bari bir butun
Ma’no bilan ham mazmun
Yig‘ilgan paytda shu kun.
“Hoyi havvaz” keldi yetib,
Suluv qizning ismin bitib.

7. Ushbu so‘zlar va gaplarni o‘qing. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

ماهر	مهارت	مات	شهرت
مشهور	علم	علم	معلم
معلوم	عالیم	عالیم	عمر
محمد	محبّت	محبّت	عمارت
احمد	لازم	لازم	لازم
ملات	امت	امت	همت
منور	ملاح	ملاح	مرجانه
تمثال	مربا	مربا	مثنوی
مجنون	مثال	مثال	رجانه

مرجبا
جمال امران ارمان درمان.
درس محمود مدرسه دا و
مكتبدا فصاحت و کتابتچیپاریک
فنلاریدن علم طالبلاрیگا هر
كونى درس بيرماقدا همدە
نظرى معلومات بيرىب مهم
عملى مشغولاتلار او تказىب
بارماقда ايدى.

8. Ushbu so‘zlar va gaplarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

Mahkama, hokimiyat, mardon, muhtasham, mustahkam, mirob, malomat, mahorat, matonat, madad, mardum, mamlakat, malohat.

Maktab ma’rifat va ma’naviyatning o‘chog‘i. Ta’lim va tarbiya orqali inson qalbiga yo‘l olinadi. Mamlakatimizning istiqboli kelajak bunyodkori bo‘lgan yoshlarning o‘z oldiga qo‘yan maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq.

Minbar sari ming bir qadam borligini bilgan voiz muloqotning kaliti nutq bilan, muomalaning kaliti xulq bilan ekanini yaxshi mushohada etib, mukammal

mulohaza qiladi. Mardlik, mardumning manfaati borasidagi matonat-mangulikning muhriga mezon.

Muallimlik fidoyilikni, mehr-oqibatni talab etadi. Muruvvatli insonlarni mardum, mudom qadrlab kelgan. Matonatli mehr-muhabbatli insonlarda oila qayg'usi va Vatan tuyg'usi bo'lishi muqarrar.

Mahoratli muallim o'z shogirdlarini mukammal va komil inson bo'lib yetishishini orzu qilib, ularga ta'limiyl va tarbiyaviy mehr ozig'ini beradi.



Uyga vazifa.

"Lom" va "Mim" harflarining so'zning turli o'rinalidagi shakllarini to'rt qatordan yozing. Mashq daftaridan mazkur harflarga tegishli qismini to'ldiring.

"MAJNUN" (jinni) so'zi qanday yoziladi?

1-bosqich: So'zdagi harflarni ayrim holda yozib chiqamiz:

م | ج ن و ن

2-bosqich: Ularning so'zda kelish o'rniga, bog'lanish-bog'lanmasligiga qarab izchil joylashtiramiz. "Mim" ning so'z boshidagi shaklini yozamiz. "A" qisqa unlisini tushirib qoldiramiz. "Jim" har ikkala tomonidan bog'lanadigan muttasil harflardan bo'lgani uchun uning so'z o'rtasidagi shaklini yozamiz. "Nun" ning ham so'z o'rtasidagi shaklini yozamiz. "U" cho'ziq unlisini ifodalovchi "Vov" ning bog'langan holatini olamiz. So'z oxirida kelayotgan "Nun" ning alohidagi shaklini yozamiz. Chunki, "Vov" o'zidan keyin kelgan harfga qo'shilmaydi. Ularni o'zaro bog 'laymiz.

3-bosqich: Natijada quyidagicha birikuv yuzaga keladi:

م | ج ن و ن — م + ج + ن + و + ن — م ج ن و ن

Harflar imlosi bo'yicha yakuniy mashq va topshiriqlar

1-mashq. қ шаклига ega harflaning so'z o'rtasidagi ko'rinishiga uchtadan misol toping va ular ishtirokida gap tuzing.

2-mashq. Nuqtalari ustiga qo'yiluvchi harflarni ajratib yozing. Ularni qatnashtirgan holda gaplar tuzing.

3-mashq. Nuqtalari ostiga qo'yiluvchi harflarni ajratib yozing. Ular ishtirokidagi so'zlardan topib, arab alifbosi asosida o'z tartibi bo'yicha yozib chiqing.

4-mashq. Bitta nuqtali harflar asosida so'zlar yasang.

5-mashq. Ikkita nuqtali harflarni ajratib yozing. Ular ishtirokida so'zlar tuzing.

6-mashq. Uch nuqtali harflarni ayrim holda yozing va ularni ta'riflang.

7-mashq. Nuqta ishtirokisiz yasaladigan harflarni yozing. Ularning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

8-mashq. Ҳ шаклиga ega harflarning so'z oxiridagi ko'rinishiga ikkitadan misol toping. Ular asosida gap tuzing.

9-mashq. Џ shaklidagi harflarning so'z boshidagi ko'rinishga ikkitadan misol toping va ular ishtirokida gap tuzing.

10-mashq. س ص ط shaklidagi harflarning alohida va so'z oxiridaigi ko'rinishlariga ikkitadan misol toping va ular ishtirokida gap tuzing.

11-mashq. ع ف ک shaklidagi harflarning so'z o'rtasidagi ko'rinishlariga uchtadan misol topib ularni qatnashtirgan holda gap tuzing.

12-mashq. Quyidagi harfiy birikmalarning ost-ustiga nuqtalarni qo'yib so'zlar hosil qiling. Ular asosida bir nechta sodda gap tuzing.

ب ا د ا و ر ا ح ا ح ر ا

13-mashq. Quyidagi jumlalarga tegishli nuqtalarni qo'yib chiqsangiz, o'zbek xalq maqol va hikmatli so'zlaridan ayrimlarini o'qiysiz.

آدаб اسماи сик رسб رسси
او сада марда фулсекси او сада марда сисекси би.
хиси нале سورгана марбар мамина нале кургана
Аа фулсек жамарс аа фулсек жамарс.
Сл слуради сл слуради آиси хим мусс
хим Амадлек и серадлек хим овслан
сурдин سورгана мари мара овсатни рахи мар
Ама سورгана آиси сисек
АОИИ سور АдмИИ سور Мархли Фладар
Умал сик сир сеси рор Уар сик фресси
о сад сисеки сакрд Умаки Болар

14-mashq. Mazkur jumlalarga tegishli nuqtalarni qo'yib chiqsangiz, o'zbek xalq topishmoqlaridan ba'zilarini o'qiysiz.

سرعحاب اسحابه الحبی دايم سحابه
سس سره سگلدار مسکنه راديو
ھول آماقسىر اسک آثار
سکى او حسар او راعىه دايم بومار سوراھى
عىش ائماس ماھادى ارى ائماس حىعادى
سلىھر عەل اور گامار كتاب
كىلى سان الحبى بومان قلم
ھىمان كىلدى بوكورى ماردى مولى گا
ھىپس لىسى بى او بى پىپاله
اسک آرماسى دا سلى ما علسى
ھل نامار سپورگى

15-mashq. Ushbu harfiy shakllarga tegishli nuqtalarni qo'yib chiqsangiz, sharq mutafakkirlari hikmatlarining asl holatini tiklaysiz.

عبدالرحمن جامی قبط فارده سی سگاد گان علمی
آلس کر اک صور رسه گا ғлан آحمان لارم
عصابلی طس همه گا ملا مسابلی و ما
ابو علی ابن سنا اگر ھوا دا حنگ و سوون
بولما سه اندی کسی سگ سل ماسا گان
بولار اندی حکم سگ اوح فورالی مار
بولار سور گناه و سع دو ر
ابو ریحان بیرونی سعی سگ خدروی
او بوقالگلاردا سلسادی بوگون سگ
حاره سسی کورس ارسا کا احساس
فالسا گان کسی عقلی دور

علیشیر نوائی کمکہ مالعاب سوری سراوگا
بوکلاگای اور فارا سوری ماعگا بولاندی
آرگسہ مالعاب ھم اولوں کیاہ دور آرگسہ
رہر ھم ھلک ملود چدور صدر درگا حارہ
اور وحود گل تکر املاکیں ھرہ اسماں اور روگنیں
اسماں ھلائقہ کو رہماں لیں سوا اور گا
روا کو رہماں کا سی روا آمالار آماعی اسداد و ر
روضہ حبیحیت ماعی روضہ ماعی وصالیں
اسماں اسماں بول آماں کیاں سرعائی
محمد خواجہ بھودی اور مادن سماں کی کو ماں گد
بورگان مالہ لارسی علمیں فوہماں کنکن لار
(وصیت نامہ دن)

16-SABOQ

HARFIY QO'SHILMA VA HARAKATLAR

Harfiy qo'shilmalar (ligaturalar). Eski o'zbek tili yodgorliklarida harflarni qo'shib yozish san'ati mavjud bo'lib, bundan ayniqsa, nasta'liq yozuvida keng foydalanilgan.

Lom-u alif:

ل (nasx xatida);

ل (nasta'liq xatida);

Kof-u alif:

ك (nasx xatida);

ك (nasta'liq xatida);

Gof-u alif:

گ (nasx xatida);

گ (nasta'liq xatida);

Kof-u lom:

کل (nasx xatida);

کل (nasta'liq xatida);

Gof-u lom:

گل (nasx xatida);

گل (nasta'liq xatida);

1. Ushbu so'zlarni o'qing. Ligaturalarning bog'lanishiga e'tibor qiling.

کل
توكل
پيكان
کلدار
بيکار
گام

Harakatlar tilshunoslikda diakritik belgilar deb yuritiladi. Arab yozuvida qisqa unlilar harakatlar bilan ifodalanadi.

FATHA – qisqa “a” unlisini ifodalaydi.

KASRA – qisqa “i” (e) unli tovushlarini ifodalaydi.

ZAMMA – qisqa “u” (o’) unlilarini ifodalaydi.

Fatha (zabar, ustun)



“a”

Kasra (zer, ostin)



“i”(e)

Zamma (pesh, utur)



“u”(o’)

“HARAKATLAR” NE DEYDUR?

“Harakatlar”deydi, bo‘ling salomat,

Ikkinchisi mimiz biling “alomat”.

Vale vazifamiz bilmasdan turib,

Chekib yurmang tag‘in afsus, nadomat.

Anglashilmas bizsiz qisqa unlilar,

So‘raydursiz, bizlar qaysi belgilar?

Bilib olmog‘i shart avval hammaning,

Xislatlarin “Fatha”, “Kasra”, “Zamma”ning.

Afsuski, ko‘p kitoblarda mardudmiz,

Ammo Qur‘on va Hadisda mavjudmiz.

Anglasangiz bizni to‘g‘ri o‘qirisz,

Aks holda turfa yolg‘on to‘qirisz.

O‘rgan, - deya bizlar qilarmiz xitob,

O‘rnimizdur bizning muqaddas kitob.

Uch qadrdon o‘g‘lonmiz bizlar asli,

“A”, “I”, “U” ning doimiy ifodasi.

Yo‘l belgisin bilmasa gar haydovchi,
Adashishi tayin, hatto yo‘lovchi.

Belgilarga gar rioya qilmasa,
Vazifasin alarning xo‘b bilmasa,
Yo‘lda sodir bo‘lg‘usidur falokat,
Ne falokat, balki bo‘lur halokat.
Bilmasangiz bizga yetar xo‘b zarar,
Shuning uchun qiymatli biz belgilar.
Bizni bilmaganlar yo‘ldan ozibdur,
Shul bois bilmoqlik amri vojibdur.

1. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“FATHA” NE DEYDUR?

“Fatha”durman men arabiylisonda,
“Zabar”durman go‘zal forsiy zabonda.
“Ustun” atabdurlar turkiy tomonda,
Doimo bo‘lgaysiz eson-omonda.
Shartli belgim kichik chiziq,
Bilmasang o‘rnim yutqiziq.
Harf ustinda tuturman joy,
Qo‘yib qo‘ymang meni bejo(y).
Qisqa “a” ning ifodasi,
“Fatha”ningdur vazifasi.
Bularga bering e’tibor,
Qay harf ustida o‘rnim bor:
Sharbat-u shabnam-u sharaf,
Talab-u tal’at-u taraf.
Farzand-u faraxbaxsh, falak,
Maktab-u mamlakat, malak.
Latofat-u, lab-u, laylak,

Karam kerak ham kamalak.

Qalam hamda qasd-u qasam,
Qamar hamda qamal, qaram.

Qaysar ila qadr-u qadam,
“Fatha” bilan mavjud har dam.



1. Fatha fors va turkiy tilda qanday nom bilan ataladi?
2. Uning vazifasi nimadan iborat?
3. Fatha harfning qayeriga qo‘yiladi?



Uyga vazifa.

Yuqorida she’riy matnni “Fatha” belgisini tegishli o‘ringa qo‘yib, arab yozuviga o‘giring.

2. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“KASRA” NE DEYDUR?

Arablar meni “Kasra”der,

Forsiy xalqlar ataydur “Zer”.

Turkiylar tilida” Ostin”,

Aytay sizga so‘zim rostin.

Belgium “Fatha” singaridur,

O‘rnim unga teskaridur.

Qisqa “i” mening-la hosil,

“Vasl” bo‘lur men-la” vosil”.

Necha so‘z keldi quyida,

“Kasra”ni qo‘ying joyida:

Xoliq-u xolis ham xodim,

Nosir-u nodir ham nodim.

Qobil-u qoyil ham qodir,

Sohib-u sodiq ham sodir.

Inson, iyomon ham iftixor,

Idrok, imkon ham e’tibor.



Vohid, vomiq hamda voris,
Ehtiros-u hirs-u horis.



1. “Kasra” fors va turkiy tilda qanday nom bilan ataladi?
2. Uning vazifasi nimadan iborat?
3. “Kasra” harfning qayeriga qo‘yiladi?



Uyga vazifa.

Yuqoridaq she’riy matnni “Kasra” belgisini tegishli o‘ringa qo‘yib, arab yozuviga o‘giring.

3. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

“ZAMMA” NE DEYDUR?”

“Zamma” durman men arabiylisonda,
“Pesh” atarlar yana forsiy zabonda.
“Utur”derlar meni turkiy tomonda,
Bizdan bexabarlik juda yomonda.

Qisqa “u” unlisi men bilan ro‘yo,
Shartli belgim mitti verguldir go‘yo.

Men ham mudom harf ustinda bo‘lurman,
Diqqat qiling, ne so‘zlarda kelurman:
Nutq-u, nufuz ila murod-u murid,
Shukur bilan shu’la-yu umr-u umid.
Xuruj-u, xumor-u ham xulq-u xudo,
Bo‘lmasun gul bekor bulbuldin judo.
O‘rnimiz bor erur ko‘ngul qulfinda.
Husn bila suluv sunbul zulfinda.



1. Zamma fors va turkiy tilda qanday nom bilan ataladi?
2. Uning vazifasi nimadan iborat?
3. Zamma harfning qayeriga qo‘yiladi?



Uyga vazifa.

Yuqoridaq she’riy matnni “Zamma” belgisini tegishli o‘ringa qo‘yib, arab yozuviga o‘giring.

4. Ushbu she’riy ta’rifni ifodali o‘qing.

“TASHDID”, “HAMZA”, “TANVIN”,
“VASLA”, “MADD”, “SOKIN”
ta’rifida muxtasar so‘z

Harakatda safarbar

Ular ila barobar

Qarindoshlari ham bor,

Ahillik ularga yor.

Ular nomin aytayin:

“Tashdid”, “Hamza” ham “Tanvin”,

“Vasla”, “Madd” hamda “Sokin”,

Ularni yaxshi bilgin.

“Tashdid” ikkilantirar,

“Tanvin” esa nunlantirar.

Qolganlari ne qilar,

Kitob o‘qigan bilar.

TASHDID - so‘z o‘rtasi (ba’zan so‘z oxirida) kelgan undoshning ustiga qo‘yiladi va uning ikkilantirib talaffuz qilish kerakligini bildiradi.

شُدْت

—
—
—

shiddat

مُدْرِس

—
—
—

mudarris

تَفَكَّر

—
—
—

tafakkur

“SUKUN” - so‘zda undosh ustiga qo‘yilib bo‘g‘inning yopiq ekanligini anglatadi.

Misol: “daftar” so‘zida “f” ustiga qo‘yiladi. دَفْتَر

◦

—

TANVIN “Alif”ning ostiga, ustiga qo‘yiladi: أ - an, إ - in, ئ - un tarzida o‘qiladi.

تَقْرِيبًا - taqriban

❖ **HAMZA** ayirish demakdir.

عَائِلَه - oila

أ **VASLA** qo‘sish demakdir. Qaratqich va qaralmish, aniqlovchi va aniqlanmish orasiga qo‘yiladi va ikki so‘zni bir-biriga bog‘lash belgisini bildiradi.

دار الفنون - dor ul-funun



Uyga vazifa.

Mazkur so‘zlarni o‘qing. Satr osti va satr usti belgilarini qo‘yib eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Haqiqat, fazilat, mukarram, tashabbus, tafakkur, muallim, jaholat, munozara, murakkab, mudarris, taraddud, munozara, taraqqiyot, tanaffus, taassurot, talaffuz, tabassum, maftun, falokat, vahshat, murabbiy, tabarruk, muborak, mashaqqat, munajjim, tasavvuf, aslan, zotan, masalan, taqriban, munaqqid, xususan, murabbo, muqaddam, muqallid, muqaddas, mazmunan.

Mazkur so‘zlarning osti va ustiga tegishli harakat belgilarini qo‘yib o‘qing va ko‘chirib yozing.

مکرم تردد تفکر منور تصادفا

ترقیات مرحمت مقدس حقانی

نکرارا فرزند شخصا موفقیت

تصدق محله شفاف نشیبت

غله تلفظ مشقت مقلد عطار

نکبر رقصه نقاش حرم منت

دره حمام ضلات مرہ منجم

Qo‘lyozma asarlarga xos usul bilan yozilgan quyidagi so‘zlarni
to‘g‘ri o‘qishga harakat qiling.

کېب بېرىن اخبات
پراه آفта بىقىات
مېلخ پىش آسما
عىزلىتىڭ كىداڭ ہىدىتى
صوتىر ھو سىز بىجنۇ
گەبت نوك ايمانى دەت
مېرىپ اقتصىت آرىپىا

مقام معن خربت شکای
عنوان گمان ینه هلکی
آفچن ینگ مدرس
عشا حبنا کلزا
کلقصین جنان رحم کدی
ادبیت اگر قدردان
برداشی جنتیت ادوگنبه

داب دهشت دید
موزن فان پریوی سما
حسن دہیں شا شاط
آیین عدای آبسته
سلام پران اخراج
ایستاد شنبه آفتاب
کتب میحات عمارت کالک

O‘tilgan saboqlar yuzasidan savol va topshiqirlar

1. Markaziy Osiyo hududidada mavjud bo‘lgan qadimiy yozuvlardan qaysilarini bilasiz?
2. Arab alifbosining Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlariga rasmiy yozuv sifatida kirib kelishining asosiy omillari nimalarda edi?
3. O‘zbek xalqi hozirga qadar qanday alfavitlardan o‘z yozuvi sifatida foydalandi?
4. Arab alifbosi nechta harfdan iborat? Uning boshqa yozuvlardan farq qiluvchi asosiy xususiyatlarini sanang.
5. Arab xat turlaridan qaysilarini bilasiz? Yozma yodgorliklar, asosan, qaysi yozuv turida bitilgan?
6. Arab alifbosidagi harflar boshqa harflar bilan bog‘lanish - bog‘lanmasliklari jihatidan necha turga bo‘linadi? Ular qaysilar?
7. Arab alifbosidagi yozuvda satr chizig‘ida va satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladigan harflarni yozib ko‘rsating.
8. Shaklan o‘xhash, lekin nuqtalarning o‘rni va miqdoriga qarab o‘zaro farqlanuvchi harflarni ayting.
9. Arab alifbosidagi nechta harf o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan tovushni ifoda etadi? Ular qaysilar? O‘sha harflar ishtirok etgan so‘zlardan namunalar ayting.
10. Arab yozuvida unli tovushlar necha xil usulda ifoda etiladi?
11. Arab alfavitidagi forslar tomonidan kiritilgan harflarning umumiyligi xususiyatlarini aytib bering.
12. «Alif» harfining vazifalari haqida so‘zlab bering.
13. Eski o‘zbek yozuvida «a» unlisini ifoda etuvchi qanday harflar bor? Misollar keltiring.
14. ~ - bu qanday belgi? Uning yozuvdagi funksiyasi haqida so‘zlab bering.
15. Eski o‘zbek yozuvida unli tovushlarni ifoda etuvchi harflarni ta’riflab bering.
16. Se, chim, to(itqi) va g‘ayn harflarining so‘zning turli o‘rinlaridagi shakllarini yozib ko‘rsating. Shu harflar ishtirokidagi so‘zlarga misollar keltiring.
17. Yozma va bosma xat turida bir-biridan farqlanib turuvchi harflar haqida so‘zlab bering.
18. Transliteratsiya nima? Xattotlik san’ati (kalligrafiya) haqida nimalar bilasiz?
19. Arab satr osti va satr usti belgilaridan qaysilarini bilasiz?
20. Fatha (zabar) diakritik belgisining vazifasini aytib bering, misollar keltiring.
21. Kasra (zir) to‘g‘risida ma’lumot bering. Misollar keltiring.
22. Zamma (pish) ning yozuvdagi vazifasi nimadan iborat? Misollar keltiring.

23. Tanvin va tashdid harakat belgilari xususida ma'lumot bering. Misollar keltiring.
24. Hamza diakritik belgisining yozuvdagi shakli va vazifasi haqida gapirib bering. Misollar keltiring.
25. Sukun va vasla belgilari haqida umumiylar ma'lumot bering.
26. «Zol», «Ze» va «Shin» harflarining turli shakllarini yozib ko'rsating va misollar keltiring.
27. «Xe», «Sod», «Mim», va «Nun» harflarining turli shakllardagi yozilishini ko'rsatib bering. O'sha harflar ishtirokidagi so'zlardan namunalar keltiring.
28. Eski o'zbek yozuvida sof unlilarning ifoda etilishi va yozuvdagi ko'rinishlari to'g'risida gapirib bering.
29. «Ayn» va «Hoyi huttiy» harflarning xususiyatlari haqida so'zlab bering. Misollar keltiring.
30. «Hoyi havvaz» harfining yozuvdagi vazifasi to'g'risida so'zlab bering. Misollar keltiring.
31. «Yo» harfining vazifalari haqida gapirib bering.
32. «Dol», «Sin», «Zod» va «Nun» harflarini ta'riflab bering. O'sha harflar ishtirokidagi so'zlarga misollar keltiring.
33. «Vov» harfi qanday tovushlarni ifodalaydi? Misollar keltiring.
34. «Pe», «Fe», «Lom» va «Yo» harflarini ta'riflab bering va misollar keltiring.
35. Eski o'zbek yozuvida raqamlarning ifodalanishini tushuntirib bering.
36. Qo'lyozma asarlarga xos yozuv usullari haqida gapiring.
37. Ko'plik va egalik qo'shimchalarini arab alifbosida asosida yozing.
38. Shaxs - son qo'shimchalarining arab alifbosida yozilishini izohlang.
39. Olmosh so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarni arab imlosiga aylantiring.
40. Ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarni toping va eski o'zbek alifbosida yozing.
41. Sifat so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarni toping va eski o'zbek alifbosida yozing.
42. Son so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarni toping va eski o'zbek alifbosida yozing.
43. Fe'l va ravish so'z turkumlariga oid so'zlarni topib, eski o'zbek yozuviga o'giring.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

مستقل اوقيش
اوچон мән лар

AXLOQ

Insonlarning yoxshilikg‘a choqirguvchi, yomonlik-dan qoytarguvchi bir ilmdur. Yoxshi xulqlarning yoxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qilodurg‘on kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o‘qub bilub amal qilg‘on kishilar o‘zining kim ekonin, janobi Haq na uchun xalq qilgonin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurgonin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yoxshi kishilarni, yoxshi narsalarni, yoxshi ishlarni qadrini, qiymatini bilmas. O‘z aybini bilub iqror qilib tuzatmakg‘a sa'y va ko'shish qilgon kishi chin bahodir va pahlavon kishidur.

بِسْمِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ الْخُلُقُ

إنسانلارنىڭ ياخشىلىكىغە چاقىرگوچى يامانلىكىدىن
قايتارگوچى بىرعلم دور. ياخشى خلق لارنىڭ
ياخشىلىكىنى يامان خلقلارىنىڭ يامانلىكىنى
دليل و مثال لارايىلە بىان قىلا دورغان كتابىنى
اخلاق دىيلىور. اخلاق علمىنى او قوب بىلوب
عمل قىلغان كىشىلار او زينىنىڭ كىيم ايكانىن
جناب حق نە او چون خلق قىلگانىن، يېرىزىدا
نېمە اىش قىلماك او چون يورغانىن بىلۈر. بىرىشى
او زىدىن خبىدار بولما سا علمىنى، علمانى، ياخشى
كىشى لارنى، ياخشى نرسە لارنى، ياخشى ايشلارنى
قدرىپىنى، قىمتىنى بىلما س. او زىعىبىنى بىلوب اقرار
قىلوب توزاتما كىغە سعى و كوشش قىلغان كىشى
چىن بھادر و پھلوان كىشى دور.

So‘ylasang so‘yla yoxshi so‘zlardan,
Yo‘qsa jim turmoqing erur yoxshi.
O‘ylasang yoxshi fikrlar o‘yla,
Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yoxshi.
Ishlasang ishla yoxshi ishlarni,
Yo‘qsa bekorlig‘ing erur yoxshi.

VATANNI SUYMAK

Vatan: har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini, shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan his-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Maishati talx bo‘lib, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z Vatanining muhabbati turar. Biz turkistonlilar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issig‘ cho‘llarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq qor, muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar.

سوپلاسانگ سوپلای خىشى سوز لار دن
 يوقسە جىئىم تورماقىنگ ايرور خىشى
 اوپلاسانگ خىشى فەرلار اوپلاد
 يوقسە گنگ بولاقىنگ ايرور خىشى
 ايشلاسانگ ايشلا خىشى ايشلارنى
 يوقسە بىكارلىغىنگ ايرور خىشى

وطنى سويمىڭ

وطن: هېرىكىشى نىنگ توغولىب او سكان
 شهر و مملكتىنى شول كىشى نىنگ وطنى
 دىيلىور. هەركىم توغولغان او سكان يېرىينى
 جانىدىن آرتىق سوپيار. حەتى بۇ وطن حس
 توغۇسى حیوانلارداهم بار. اگر بىر حیوان
 او ز وطنىدىن آميرىلسا او ز يېرىدەگى كېى
 را حتى دە ياشاماس. معىشتى تلغىخ بولىب
 هەر وقت دىلىننەنگ برگوشاسىدە او ز وطنى
 نىنگ محبىتى تورار. بىز تۈركستانلىلار او ز
 وطنىمىزنى جانىمىردىن آرتىق سوپىگانىمىز
 كېى عرب لار: عربستان لارىنى قوملىك
 اسىيغ چوللارىنى، ايسكيمولار شمال
 طرفلارىنى، اينك ساوق قار، موزلىك
 يېرلارىنى باشقە يېرلاردىن زىادە سوپيارلار.

HIFZI LISON

Hifzi lison deb, har bir millat o‘z ona tili va adabiyotini saqlamog‘ini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdur.

Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursun, kundan kun unutmoq va yo‘qotmoqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiylari, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmoq hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z joyida ishlatmoq va so‘zlamoq lozimdur. Zig‘ir yog‘i solib, moshkichiri kabi qilib orolosh-qurolosh qilmoq tilning ruhini buzadur.

حفظ لسان

حفظ لسان دیب هر بیر ملت او ز آنه تیل و ادبیاتینی ساقلاماقینی ایتلور. هر بیر ملت نینگ دنیاده بار لیغین کورساتا دورگان آئینه حیاتی تیل و ادبیاتی دور. ملی تیلنی یوقاتماق ملت نینگ روحینی یوقاتماقدور. هیهات! بیز تورکستان لیلاس ملی تیلنی ساقلاماق بیر طرفه تورسون کوندن کون اونو تماق و یوقاتماقده دورمیز. تیلیمیز نینگ یارمیگه عربی، فارسی او لانگانی کم لیک قیلیب بیر چیتیگه روس تیلینی هم یا پشد و رمکده دورمیز. درست بیز لارگه حکومتیمیز بولغان روس لسانینی بیلماق حیات و سعادتیمیز او چون آش و نان کبی کیرا کلیک نرسه دور. لیکن او ز جاییده ایشلانتماق و سوزلاماق لازم دور. زیغیر یاغنی سالب ما شکی چیری کبی قیلیب آرا لاش قورالاش قیلماق تیلنینگ روحینی یوزا دور.

Yohu! Bizga na bo‘ldi? Bolalarimiz yo‘ldan chiqib ketdi. “Yaxshi qo‘shningdan olguncha yomon uyingdan qidir” demishlar. Bobolarimizga yetushg‘on va yarag‘on muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va axtarsak yo‘qolganlarini ham topurmiz. “Yo‘qolsa yo‘qolsin, o‘zi boshimga tor edi” deb, Yovrupo qolpog‘ini kiyib kulgi bo‘lmoq zo‘r ayb va uyotdur.

Umumiyl milliy tilni saqlamoq ila barobar xususiy og‘iz orasidagi tilni ham saqlamoq lozimdur. Chunki so‘z insonning daraja va kamolini, ilmu fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar. “Quruq so‘z qulogq‘a yoqmas” demishlar.

ياهو! بيزگە نه بولدى؟ بالا لارىمېز يولدۇن چىقىپ كىتىدى. «ياخشى قوشنىڭدىن آلكۈنچە يامان اوپىنگ دن قىدىر» دېمىشلار. بابالا رىمېزگە يتوشغان و ياراغان مقدس تىل و ادبىيات بيزگە هېچ كەملىك قىلىماس. اوز اوپىمېزنى قىدىرساك و آختارساك يوقالىغانلارىنى ھم تاپورمېز. «يو قالىسە يوقالىسەن اوزى باشىمكە تارايدى» دىب، ياور و پاقالپا غىنى كېيىب كولكى بولماق زورعىب واويات دور.

عمومى ملى تىلنى ساقلاماق ايلە برابر خصوصى آغز آراسىدەكى تىلنى ھم ساقلاماق لازمدور. چونكى سوز انسان نىنڭ درجه و كمالىنى، علم و فضلىنى اولچاب كورساتادورگان ترازو سىدور. عقل صاحب لارى كىشى نىنڭ دىلىدە فكر و نىتىنى عالم و قوّتىنى، قدر و قىمتىنى سوزلاڭان سوزى دن بىاورلار. «قوروق سوز قولاقغە ياقماس» دېمىشلار.

Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lib, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo‘lmasa, asal arilari orasida g‘o‘ng‘urlab yurgon qovoq ari kabi quruq g‘o‘ng‘urlamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgon qattig‘ kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan kelur. Shuning uchun “ko‘p o‘yla, oz so‘yla” demishlar. Tillarning eng yaxshisi so‘zga usto til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdur.

Go‘zallik yuzda ermas, ey, birodar,
So‘zi shirin kishi har kimga yoqar.
So‘zing oz bo‘lsin va ma’noli bo‘lsin,
Eshitganlar qulog‘i durga to‘lsin.
So‘zing bo‘lsa kumush, jim turmoq oltin,
Misi chiqg‘oy so‘zing ko‘p bo‘lsa bir kun.
Ko‘paygan so‘zni bo‘lg‘oy to‘g‘risi oz
Shakarning ko‘pidan ozi bo‘lur soz.

اگرسوز عقل و حکمت گه موافق بولیب او زیگه
 یا کی ایشتو چیگه بیر فایده چیقادور گان بول ماسا
 عَسَل آری لاری آراسیده غونغور لاب یور گان
 قاواق آری کبی قورو ق غونغور لاماق فقط باش
 آغريغيدن باشقه بير نرسه اي ما سدور،
 پاش يمیزگه کيلا دور گان قاتتیغ کلفت لار نینگ کوپی
 يوم شاق تيليمیزدن کيلور. شونینگ او چون کوب
 اوپلا، آز سویله دیه شلار. تیل لار نینگ اينگ
 ياخشیسی سوزگه اوستا تیل، سوز لار نینگ اينگ
 ياخشیسی بیلیب و آخیرینی اوپلا ب سویلانگان سوز دور
 گوزل لیک یوزده اي ماس اي برادر،
 سوزی شیرین کیشی هر کیمگه ياقار
 سوزنیگ آز بولسین و معنالی بولسین،
 ایشتنگان لار قولاغی دُرگا تو لسین
 سوزنیگ بولسه کوموش، جیم تور ما مق آلتین
 مسی چیقیغای سوزنیگ کوب بولسه بیر کون
 کوپا یگان سوزنی بولغا ی تو غریسی آز
 شکر نینگ کوپیدن آزی بولور ساز .

Yusuf Xos Hojib hikmatlarining nasx va nasta'liq xatlaridagi shakllarini o'zaro solishtiring.

حکمت لار

коқда йолдоzlарининг قончеси бизлек
кончеси бешрка йулчидир би шак

коқда йолдоzlарининг кончеси мэнк
кончеси бешрка йулчидир би шак

йине бирхамит бархистани Адм -
билим, у清华 и драк сабб мутарем

йине бирхамит бархистани Адм
билим у清华 и драк сабб мутарем

سوزینگ احتیاط قیل باشینگ کیتماسین
تیلینگ احتیاط قیل تیشینگ سینماسین

سوزینگ احتیاط قیل باشینگ کیتماسین
تیلینگ احتیاط قیل تیشینگ سینماسین

جمیع سوزنی سوزدیب گپیرما بیراق
کیراڭ سوزنی سوزلا بولیب کوز- قولاق

جمیع سوزنی سوزدیب گپیرمه بیراق
کیراڭ سوزنی سوزلا بولیب کوز قولاق

اگر او ز تیلینگ کا ایک اسن او زینگ
تیلینگ دن چیقار ما یارا قیز سوزینگ

اگر او ز تیلینگ کا ایک اسن او زینگ
تیلینگ دن چیقار مه یارا قیز سوزینگ

تیل ارسلان مثالی یاتار قفس دا
بی خبر باشینی ییراونفس دا

تیل ارسلان مثال یاما قفص دا
بی خبر باشینی ییراونفس دا

آرتیق سوزدا اصلا بولارمی فایده
زیاندن بولاک یوق سوز آرتیق جایدە

آرتوق سوزدا اصلا بولارمی فایده
زیاندین بولاک یوق سوز آرتوق جایدە

تیلینگنگى آوايلا آمان دورباشىنگ
سوزىنگنگى آوايلا او زاييار ياشىنگ

تیلینگنگى نى آوايلە آمان دورباشىنگ
سوزىنگنگى نى آوايلە او زاييار ياشىنگ

بىلەملى اوچۇن سوزلا دىيم مىن سوزىم
بىلەسىز سوزىنى توشۇنماس اوزىم

بىلەملى اوچۇن سوزلا دىيم مىن سوزىم
بىلەسىز سوزىنى توشۇنماس اوزىم

اوزىنگى منگو ايماس، آتىنگى منگودىر
آتىنگى قالار بولسا، منگولىك شولدىر

اوزىنگى منگو ايماس آتىنگى منگودور
آتىنگى قالار بولسا منگولىك شول دور

اینکه بختی دم شول خدص کلام
 چیزی کیم قالدر کسی بخشنام
 ناصرخسرو

هر کیشی دا بولسہ ایرلک د بختشان
 شچ پرآدم غررو او کو منعا ی زنای
 امیر علی شیرنوی

بوجان ملیک ام انسان روز
 بلکه نشانه اونکا ایمان روز
 ای پیمان روز

امیر علی شیرخواه

او سازنده دن الغار
 اوندین آریق بسته بار
 حکمتی عباره - حمال

ادب کا نگیل علم حاصل قیل
اہل معنی غہ اوزنی و حاصل قیل

تامار پر لئم الیہ ادم او علی کمال
پیور ما شرس کالہ جمال الیہ مال

باشنى فدا قیلغیل اتا باشیغه
جسمىنى قیل صدقہ انا قاشیغه
تون کو نونگا ایلا گالی نور فاش
بیر بیسین آئی انگلا بیر بیسین قوباش

زمان کاظم قتلن تا فیصل حیات
 تکنیک نی خاندرا کیل آز زندت
 تخته قیل عالمه اومات
 دلکنیک نی با خاندرا کیل معنویت
 حیمه بای جهش بیان

تاکه بارغیت مرد لیک دن اثر
 اهل عیا لینگنی قیلما در بد ر
 میوه شاخی اگر دیوار دن آش
 یولا و پچی لار او نگابی سک قبول چوزار

ناوان یغیتی گا بولیپس نشان
 قایتا رغوم بحوم نی مینمی پلوا ان
 ملامت قیلو ر لار جا هل لار چونکه
 بیلم دا ایرو من نادر زمان

پهلوان محمود رباعی لاری

یامان بیلان الفت بولما یور سر اق
 یولینگ کا دان ساچیب قویادی توزاق
 یای نی ایگری کوریب تو غریگی دن
 او ق اوندن قانچه کیک قاچکانیگها باق

عاقل عقلی حس گا گرفتار بولما س
 حسد قیلعان بیلان طلا خوار بولما س
 نامرد ایست کسی دور مرد بیوک دریا
 دریا ایست ذمی دن پیچ مردار بولما س

بـرچـه گـا بـرابـر آفـتا بـیـمان
 یـاشـاشـین عـالـم دـیـب یـاشـایـدـی اـوزـیـک
 باـبالـارـی قـایـسـی بـیـکـیـت لـارـدن کـم
 ماـماـلـارـی خـوـشـروـی یـوـزـدـن آـشـسـامـم
 زـرـیـادـلـارـی بـولـسـا بـیرـتـه اوـی گـا جـمـع
 توـشـکـیـتـهـایـتـهـینـیـن توـشـایـدـی اـوزـیـک
 قـیـاسـین تـایـدـنـگـهـی اـیـتـگـیـن حـمـدـه
 اوـخـشـاسـا اـوزـیـگـا اوـخـشـایـدـی اـوزـیـک
 یـامـان شـعـرـیـازـسـانـک ڦـمـپـیـشـنـدـن اوـپـبـ
 کـمـ بـولـسـا بـالـامـ دـیـب یـاشـایـدـی اـوزـیـک

شەمدىوست

قىاسى يوق او نىڭ مەرى بىر ديرما
 او خشاشا اوزىگا او خشايىدى اوزىك
 باشقە مىلت لارنى بىلما دىم اما
 دىنiadا بالام دىب ياشايىدى اوزىك
 او تابولسا او نى باشقە او نىڭچون
 او عىليم آتىشىمدان يارالغان او چقۇن
 قىزىم پىرى لاردن رخسارى گىلىكۈن
 قاشلارى قىم دىب ياشايىدى اوزىك
 بىر قولدا بىلنىك، بىر قولدا قرآن
 بىرىكىدا كېشان بىردا ئىسان

حیدر عالمجان

شادکیک بولگا باشدادی مینی
 بختیار لیک بولدی عادتیم
 شاعر بولیب شادکیک و بخت کانی
 کوپلامکلیک زور عادتیم
 قوانچ شوکیم طالع یار بولیب
 بختنی تا پگان ایلنی کورالدیم
 عصر لارنیگ قیغوسین فرغاب
 شادکیک و بخت کوپسی چلیم

وينگر زينگ ديجاني

بيركشى دينگر دن بليق تو تىپ آزىزى
 قيرغاق گا شوندai دىپ يازىزى
 دينگر سين سخى سن
 بيركشى طلا ساعتىنى تو شىرىپ يوبارىزى
 قيرغاق گا او هم يازىزى سين او غرى سن
 سونگ بيركشى زينگ او غلى چوكىپ
 كىتىپيدى او هم يازىزى سين قانىزى
 شوندا دينگر تولىپىنلائىپ بارچە يازولارنى او پىزىپ
 شوندai يازىزى دينگر بولىشنى
 ايستاسانگ بيرأولازىنگ گېپى گا اعتبار بيرما

آیلی آشنا
 بیکر کیشی او زی نینگ دوستی بیلان خرمایپ
 او لکتوروب او زی بیگان خرمالار نینگ دنگین
 دوستی نینگ آلدیغه قویوب انى او یالتور ملچی
 بولوب مگر سیز خرمانی یخشی کورار ایکانیز که
 آلدینگیزدا شونچه خرمائینگ دنگی بیغیلید ور
 دیگانیدا دوستی جواب بیروب ایستودور که
 من او بیلا بیمنکه سیز انى مندین کوبهراق یخشی
 کورار ایکانیز نه او چونکه آلدینگیزدا
 نه خرماقالدى نه خرمائینگ دنگی بلکه تمه سینی
 دنگی بیرلا ییپ بیدور سیز دیگانیدا اوں کیشی او زی
 او یالیپ دور مقال بیروگا اور کاولامه او زنگی بیتیلور سن

عاقل او غیل

بیر آتا ژورنال او قیب او ترا ردی کیچیک او غلی
 خلقیت قیلیشنى قویماسدی . بیران نرسه
 بیلان بند بولسا مینى پېچ قویادی
 دیب او بیلا ب دنیا خریتە سى عکس
 ایتگان ورق نى بیرتیب بولاڭ لارگا بولیب
 شونى تېكلا دیب بويوردى بالا كوبپ
 او تىمىسىن اونى تېكلا ب آتاسى يانىگا
 کىلدى تىجىلانغان آنا سورا دى جغرافىيە
 فنى نى كېيم او رگاتىدى سىنگا بالا دیدى
 پېچ كېيم خریتە نىنگ آرقاسى دا آدم صورتى بار
 ایكان انسان نى تېكلا گانىم دنیا ھم تېكلاندى

اولار منسیز پاشای آکشاییدی دیپری او
 بو صحبت نی جیمگینه تینگلاب او تیرگان
 مھرنگیک کوزلاری یا شلائیپری بیر آغیز
 سوز ایتیشگا جرات قیلامای سغلاانی سیرپری
 سونگ یعنی دن توختاپ شوندای دیپری
 مین قدلى ایدکیم قدر دیگان ایشیم یوق بولغونچه
 مین صدقلى ایدکیم صدقاقت دیگان سینگلیم
 یوق المغونچه مین ارداقلى ایدکیم عاقبت
 ایلگیزکیم یو ٿالغونچه آدمزاد او چاوینگنی دیپ
 یعنی باي بولامن چیو یب سیو ملامن او نیاب
 قوانامن دیپ مین فقیر نی مهر عاقبت نی
 او نو تیپ قوشماقدا دیپری خورشیدب مهر

منظارہ

بیرکوئی بایلیک مهر محبت قواچ تورتا ولان جمع
 بولیشیدی کیم آدم لارگا ضرور کیم آدم لارگا
 بیر عمر کیراک دیب سورا بدی قواچ شوندا
 مین آدم لارگا بیر عمر کا کیرا کمن دیپدی بایلیک
 منینگ او زیم بز پنچی دیپدی او محبت
 او زیدن توریب مین آدم لارگا بخت آلب
 کیلامن اولارگا جوده ضرور من دیک منینگ
 او زیم بیر پنچی دیپدی شوارا دا قواچ پسچیب
 توریب مین آدم لارنی شاد ایتامن اولازنینگ
 دلی گا ذوق بیرا من بیر عمر منی آرزو
 قیلی شادی دیک منینگ او زیم بیر پنچی

بى آداب

بىر آدم خط پىتوب اول تورگاندا بىر بىگانه كىشى
 انىنگ ئالدىدا اول توروب انىنگ خطيئه قرادى
 اول آدم خطيئه يازدىكە بىر بىگانه احمق آلدىدا
 اول توروب خطيئه قرادى شول سېلىخ
 سېرىمىنى يازالماديم دىپ اول كىشى من خەنگىنى
 او قوغانىيم يوق نىڭما مىنى احمق دىپ يازاسن
 دىگانىدا اگەر خطيئىنى او قومافان بولسانڭ
 احمق دىپ يازگانىمىنى قايدىن بىلەنگىك دىپ
 او يال تورودور اى شاگىر دلار بىراو خطا يازگاندا
 اصلا قرامانلىار بوقىئىغى بى آدابلىك دور

چیقتی قاراسما نه ایت بار و نه نان سوداگی
 کورونغان ایت ایسه او زی نیگ عکسی
 ایکان سونگره سوزوب سوزوب زور غه
 چیتگلا یتوب اولار حالت دا سودون
 چیقدی او زنانی دن هم آیریلیدی چونکه
 آیریلاب آغزین آچگاندا نانی سوگاتوشوب
 آقوب کیتگان ایدی حصه او ز آغز
 داگیگا قناعت قیلما سدن براونیگ
 نرسرے گا قول او ز اگان کیشی
 او ز نرسرے سیدن هم آیریلور

قناعت

بیرايت آغزیدانان تىشلاپ كېچىك كۈپرۈك
 اوستىدىن او توب كېتىمدا ايدى كۈزىگە سو
 اپىجي دا او زىگە اوخشاب نان تىشلاپ
 قۇرغان بيرايىت كوروندى او ل ايتىنىڭ
 آغزىدەكى نانغا هوسى كېلىوب آنى تارتوب
 آلمىك آرزوسى دا تىز تىز تىكىيگە نىدا سوداگى
 ايتىم بونگاكوزىن آلاستوروب قاراب
 قوياره ايدى آخر دانفس غلبە قىلوب آغزىن
 آچىب ايرىللاپ سوگاكا او زىن تاشلادى
 سوگاكوشىكاج بير شونتوب يىنة سو يوزىينا

عوض او تار او غلی تیل

هر تیلنی بیلو ایدی بنی آدمه جاندور
تیل واسطه رابطه عالمیاندور
غیری تیلینی سعی قیلینگ بیلگالی یاشلار
کیم علم و هنر لر تجده سی آندین عیاندور
لازم سیزه هرتیلنی بیلو آنا تیلی دیك
بیلما ککا انى غیرت ایتینگ فایدالى کان دور
علم و فن اوییگا یوبارینگیز بالانگیزنى
اندا او قوغانلار بارى يكتاي جهاندور
زاراول ماسون آنلار داغى تیل بیلماي عوض دیك
تیل بیلما کانیدین اینگ بغرى تولا قاندور

علیشیر نوای حکمت لاریدن

آدمی ایرسنگ دیماگیل آدمی
آف کیم یوق خلق غمیدین غمی

خلايق غه کورمه قيليب بی نوا
اوزونگا روا کورمگان نرسنه روا

تۇغرى سوز معتبر
يخشى سوز مختصر

بۇ گلشن اىچرە چو يوقدور
بقا گلپىگا ثبات
عجىب سعادت ايرور
يخشى لىكى بىلدە چىقىسى آت

صحت اىستسانگ كم يىگىل
عزت اىستسانگ كم دىيگىل

شىھە قىلەمە عيان غە
محتاج ايماس بىان غە

مقیدى

غزل

نوبهار آچىلدى گل لار سبزه بولدى با غلار
 صحبت ايلايلىك كىلىپىنگلار جوره لار او رتاغلار
 خوش بوم حفلده تىرىكلىك الفت واحباب ايلا
 اويناشىپ گاهى طبیعتنى قىلايلىك چاغلار
 رخ آچىب كوز دين نهان بولسا پريدىك نيلاسون
 آيرپىلىپ هوش و عقل دين تىلبه بولماى ساغلار
 هيف كيم اهل تميز او شبو محلده خارا يك ان
 آلدىلار هر يerde بلىبل آشيانىن زاغ لار
 وهم ايستاب كىمسە دين غم دلنى اظهارا يلا سەم
 چاره قىلمىك دين او زگا او ستيغه تىرنا غلار
 تابكى مونداغ ملامت كنجىدە دايىم مقىيم
 بوزمان كوز تو تكين ايمىدى سىنگا اولسون تاغلار

لطفی دیوانیدن

ای پری رخساره لار بیزگا نکاه ایلا ب او تونگ
بر نظر بر لاغدانی پادشاه ایلا ب او تونگ
کرچه او تکاندا کیر ارسیز کوب کیشی نی قانینه
بو گدا کونگلی او چون مونچه گناه ایلا ب او تونگ
خار لیق حدین آشور مانگ چون که عزت یولدادر
آتینگیز نعلیندابیز نی خلا ک راه ایلا ب او تونگ
هر چنان جان بیرسام اول قد و اغیز یادی بیله
ای محب لار ترتیم اوستیده آه ایلا ب او تونگ
بیر نیچه کیم سیزگا زحمت دور زکات حسن او چون
الطفاتی لطفی ساری گاه گاه ایلا ب او تونگ

حڪمت

غريپ ليغ ده غريپ بولگان غريپ لار
غريپ لار حالى نى بيلگان غريپ لار
سبب بيرله ييراق ييرگا باريپان
قارينداش قدرپنى بيلگان غريپ لار
سوساگانده سوگا محتاج بولغان
تريکده زارا أولوب أولگان غريپ لار
كىشى بيلماس غريپ لار حالى نيدور
مگر بيلگاي غريپ بولغان غريپ لار
غريپ ليغ قاتيغ ايشدوراي عزيزيم
كيم اول بى قدر اولار مسكين غريپ لار
كيل ايمنى احمد او زونگا باقغىل
غريپ سين سين غريپ مسكين غريپ لار

احمد یسوسی

حکمت

بیشک بیلینگ بودنیا بارچا خلق دین او تارا
 اینانماغیل مالینگا بیرکون قول دین کیتارا
 آتا آنا قارینداش قیان کیتی فکر قیل
 تورت ایا غلیغ چوبین آت بیرکون سنگایتارا
 دنیا اوچون غم پیما حق دین او زگانی دیما
 کیشی مالینی ییما صراط او زره تو تارا
 اهل و عیال قارینداش هیچکیم بولمایدی بولداش
 مردانه بول غریب باش عمرینگ بیلدیاڭ او تارا
 قل خواجه احمد طاقت قیل عمرینگ بیلمام نیچه ییل
 اصلینگ بیلسانگ آب و گلینه گل گا کیتارا

داناسوزى گويا آقارسوو ايرور،
سوو آقسا ييراوزره كوب نعمت او نور.

شانى كامايمайдى دانا اورتاق نينك،
سووى كامايمайдى زلال بولاق نينك.

данالار بولادى مثالى چيمزار،
قايكى آياق قويسانڭ اوپيردا سووباز
بىلەسىز نينك كونگلى قوم ايرور گويا،
اوت. اولان اوسمайдى كىرساھم دريما.

بىرى تىل ايرور، كور، بىرپسى بوغوز،
اولارنى تىالسانڭ فايدەسى دىنگىز.

كىشى لار ايىز ماسى ياووزدن يامان
ارداقلى كىشى لار كىمگەن هر تچان

مرتبەگا ايرپيشىا، تىبر، مغرور بولادى،
اولىم توتكاچ اوپغانادى، او كىنچ بىلان اولادى.

یوسف خاص حاجب

بىلەم سىز كىشى بىر مىوه سىز ياغاچ
مىوه سىز ياغاچنى نىمە قىلىسىن آج

ايکى خىل نام قالار تىلدا بى گمان
بىرى - يخشىلىيگو بىرىسى - يامان

يامان گا قارغىش ويختى گا آقىش
قاى بىرىنى تانلاماق سىنگا باخلىق ايش

آتالار سوزى دىرى بىز اوچون ميراث
آتالار سوزى نىنگ نفعى بى قىاس

اولىمنى حق بىلگان خلق غە يقىندىر
اولىك هەم تىريك گا عبرت نقلدىر

قىليچلى قول خلق غە بىرادى بويروق
قلملى قول داندىر حقلى يول - يورىق

اوقوو - ادراك قارا توئىنگ گا چيراق
بىلەم نورى بىلان يانار يخشى راق

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

Rahimboy Jumaniyozov

MATNSHUNOSLIK ALIFBOSI

(Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi)

Ijod maktablarining 7-sinf uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lismuassasalari agentligi huzuridagi ilmiy-metodik kengashi tomonidan tavsiya etilgan

Muharrir – Inog'omov Yorqin
Rassomlar – Erkin Nurmonov
Najot
Sahifalovchi – G'ofurov Sanjar

Nashriyot litsenziyasi AI №015. 20.07.2018. Bosishga
06.11.2020 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8
«Kelvinch» garniturasi. Shartli bosma tabog'i
Adadi , Buyurtma №

Original-maket "Zamin Nashr" MCHJda tayyorlandi.
«Credo Print» kitob fabrikasida chop etildi.
100053, Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.
Tel: 71 234-44-01/05. www.credoprint.uz